




Бош илмий-методик  
марказ

**FARG‘ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**



**“MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDAGI  
ISLOHOTLARNING NAZARIY  
KONSEPTUAL ASOSLARI”**

**MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV –USLUBIY MAJMUUA**

**Usmonov Baxriddin  
Tarix fanlari doktori, DSc**

**2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’limvazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi va FarDU Ilmiy kengashining 2021 yil «30» dekabrda 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.**

**Tuzuvchi: Usmonov Baxriddin -Tarix fanlari doktori, DSc**

**Taqrizchilar: M. H. Isomiddinov – FarDU tarix fanlari doktori,  
professor**

**S.Yuldashev – FarDU, PhD**

## MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR .....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI .....	17
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	21
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	99
V.	KEYSLAR .....	128
VI.	GLOSSARIY .....	130
VII.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	150

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdai innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

**“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulining vazifalari:**

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

**“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari”**moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi: Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqbol va taraqqiyot yo‘lini;

O‘zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;

Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini;

O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy ta’limoti tarqiqiyotning o‘zbek modeli ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, bu boradagi yutuqlar, istiqbol rejalari, maqsad va vazifalari **bilishi kerak.**

**Tinglovchi:**

– O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri, Vatanimiz naqadar qadimiy va boy tarixga ega ekanini, bu tarixning yaratuvchisi, uning haqiqiy egasi ham shu zaminda yashayotgan xalq ekanini anglab tarixiy tafakkurga ega bo‘lish, tarixiy haqiqatni bugungi kun bilan solishtirish, tahlil qila bilish;

- o‘z ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb bilish va undan

g'ururlanish hissiga ega bo'lish va buni o'zining amaliy ishlarida namoyon etish;

- ajodlarimizning tarixiy merosni o'qib-o'rganish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**

**Tinglovchi:**

- tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslash orqali ulardan o'zi, jamiyat uchun muhim xulosalar chiqarish, bugungi erkin va ozod hayotning qadriga yetish;

- jamiyat taraqqiyotida xalqning, siyosiy yo'l boshchilarning o'rni va ahamiyati naqadar katta ekanini anglab, ularga haqqoniy baho berish, aksincha turli xavf-xatarlarning bu boradagi zararini tushuntira bera olish, tarixiy misollar asosida ma'rifiy targ'ibot yuritish, xalqning saviyasini oshirishga intilish;

- tarixiy voqealar va hodisalar bo'yicha og'zaki va yozma nutq orqali, adabiy til qoidalari asosida o'z nuqtai nazarini erkin ifoda etish, ilmiy asoslangan, mustaqil fikriga ega bo'lish va ularga ongli munosabat bildirish olish **malakalariga ega bo'lishi zarur.**

**Tinglovchi:**

-O'zbekistonda olib borilgan islohotlarning nazariy konseptualmasalalarini;

-O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, uning mazmun va mohiyatini;

- Iqtisodiy islohotlar, uning bosqichlari;

-Mustaqillik yillarida tarix fanida amalga oshirilgan tadqiqotlarda innovatsiya va yangiliklarning amalga oshirilishi va uning ahamiyatini tahlil qila olish kabi **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O'zbekistonga ta'siri.	2	2	2			
2.	O'zbekistonning o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'li.	2	2	2			
3.	O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.	2	2		2		
4.	Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.	2	2		2		
5.	Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash.	2	2		2		
6.	2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.	2	2	2			
7.	Davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.	2	2		2		
8.	Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.	2	2	2			
9	Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar.	2	2		2		
10	O'zbekistonda chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi.	2	2		2		
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>		

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: “XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.
2. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.

### **2-mavzu: O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Siyosiy islohotlarning boshlanishi.
2. Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.
3. Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli.
4. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi harakatlar.

### **3-mavzu: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.
2. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.
3. O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan davlatlar qatorida.
4. 2017-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va istiqbollari.



**4-mavzu: Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Qonun ustuvorligini ta'minlashning ahamiyati.
2. Sud – huquq tizimini isloh qilish zaruriyati
3. Tizimdagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari

**AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**1-mavzu: O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi. (2 soat)**

**Reja:**

1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.
2. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bos-qichlari va xususiyatlari.
3. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi.

**2- Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. (2 soat)**

**Reja:**

1. Ijtimoiy siyosatning mohiyati va uning jahonda qo'llanilish uslublari
2. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi
3. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining bosqichlari va rivojlantirilishi

**3-mavzu. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash. Erishilgan yangi marralar.**

**(2 soat)**

**Reja:**

1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi
2. O'zbekistonda bank-moliya tizimini mustahkamlanishi

**4- mavzu. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish. (2 soat)**

**Reja:**

1. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash
2. Davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.

**5 - mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar (2 soat)**

**Reja:**

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar

**6- mavzu. O‘zbekistonda chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi (2 soat)**

**Reja:**

1. O‘zbekiston tashqi siyosatidagi yangi yo‘nalish va uslublarning qo‘llanilishi
2. Millatlararo hamkorlik va hamdo‘stlikning mustahkamlanishi

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

**I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.:

“O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi “Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

18. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

19. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

20. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.

21. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.

22. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.

23. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.

24. Bunch B., Hellems A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.

25. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.

26. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.

27. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.

28. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
29. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
30. Grant E.A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
31. H.Q. Mitchell, MarileniMalkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
32. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
33. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century.– Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
34. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
35. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
36. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.
37. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.
38. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
39. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
40. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
41. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.

42. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
43. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
44. Aydin Arif ogli A. Xroniki musulmanskix gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
45. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
46. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
47. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
48. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
49. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
50. Yevropa mamlakalariva AQSH 1640–1918 yillarda. /A.Xolliyevtahririostida. –Toshkent: Universitet, 2010.
51. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
52. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE.Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.
53. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.
54. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
55. Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.

56. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
57. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
58. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
59. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
60. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
61. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so'z, 2017.
62. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

#### **IV. Интернет сайтлар**

63. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
64. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
65. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
66. O'zbekistonRespublikasiPrezidentiningrasmiysayti: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
67. O'zbekistonRespublikasiOliyva o'rtamaxsusta'limvazirliginingrasmiysayti: <http://www.edu.uz/modules/wfchannel>
68. “Xalqso'zi” gazetasi – [wwwinfo XS. Uz](http://www.infoXS.Uz).
69. “Turkiston” gazetasi – [wwwturkistonsarkor. uz](http://www.turkistonsarkor.uz).
70. “Ma'rifat” jurnali – [wwwma'rifat – inform](http://www.ma'rifat-inform).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun o‘quv mashg‘uloti oqilona tashkil qilinishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishi, o‘rganilayotgan o‘quv materialining mazmuniga mos ravishda metod va vositalarni tanlash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ta‘lim oluvchilarni o‘zlashtirish darajasi, amaliy ko‘nikma va malakalarini interfaol yoki interaktiv ta‘lim metodlari orqali rivojlantirish mumkin.



**Interfaol metodlar** deganda-ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim-tarbiya jarayonida talaba-talaba, talaba-o‘qituvchi hamkorligida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladigan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Interfaol ta‘lim metodlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari o‘zlashtirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;



- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Quyida o‘quv mashg‘ulotlarda keng qo‘llaniladigan interfaol ta‘lim metodlarining mazmuni va foydalanish bosqichlari bilan tanishamiz.



**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari

mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta‘lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta‘lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta‘lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta‘lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta‘lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta‘lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan


muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

**“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

**“Venn diagrammasi” GO** talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

**“Venn diagrammasi” sxemasi**



### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-mavzu:XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.
2. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.

*Tayanch so‘zlar: “Qayta qurish” siyosati, iqtisod, ijtimoiy tanazzul, qatag‘onlik, “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi”, ishchi kuchi, dehqon, kolxoz, boshqaruv tartibi, kadrlar yetishmovchiligi, markaz, mustaqillik.*

XX asr 80 yillarida sovet davlati mamkakatleri ijtimoiy-siyosiy murakkab jarayonni boshidan kechirayotgan edi. 80 yillarning birinchi yarmi vatanimiz tarixidagi eng murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan mehnatkashlarning fidokorona mehnati tufayli Respublika iqtisodiyoti rivojlandi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotda muammolar, noxush holatlar to‘planib borib pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi.Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish batamom to‘xtab qolmagan bo‘lsada, siljish suratlari tobora pasayib sekinlashib bordi. Biroq 1980-yilda ijtimoiy hayotda iqtisodiyotni qayta qurish demokratik jamiyatni yaratish uchun urinishlar bo‘ldi. Bu urinishlar natijasida jamiyatda biroz bo‘lsada boshqaruv respublika ixtiyoriga berildi. Demokratlashgan jamiyat vujudga kela boshladi, korxonalar va tashkilotlarda xo‘jalik mustaqilligi kengaytirildi, boshqaruv apparati qisqardi va shu kabi bir qator o‘zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlariga yetib bormadi va konservativ

kuchlarning qarshiligiga duch keldi. Jamiyatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuzaga kelgan inqirozli holatning sabablari va ildizi fikrlashning orqada qolganligida, muayyan tarixiy sharoitga yetarli siyosiy baho bera olmaganlikda edi. Ijtimoiy munosabatlar mehnatni rag‘batlantirish tizimining buzilishi oqibatida murakkab vaziyat vujudga keldi. Malakali mehnatga haq to‘lamasdan kamsitildi. Barcha ishchilar misol uchun vrach va sanitar bir xil maosh olardi. Natijada aholining mehnatga bo‘lgan qiziqishi pasayib bordi bu esa unumning pasayishiga olib keldi, mazkur holat yillar davomida o‘sib bordi mahsulot tanqisligini keltirib chiqardi. Bu holatni biz nafaqat ishchilar haqqi masalasida balki jamiyatning har bir ko‘rinishida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan sog‘liqni saqlash va xalq maorifi sohalorida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Davlat budjetidagi mablag‘ bu o‘z navbatida ushbu sohalardagi moddiy texnik bazasining eskirishiga, ta‘lim jarayonini va aholining tibbiy yordam olishining yomonlashuviga olib keldi.

Yurtimizda yosh avlod ta‘lim olishi uchun o‘quv qurollari u yoqda tursin hatto o‘quv muassasalari ham yomon ahvolda edi. Respublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atiga 40 foizi maktab uchun mo‘ljallab qurilgan binolar qolganlari esa moslashtirilgan binolarda o‘qirdi. Ko‘plari avariya holatida edi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi ikkinchi yoki uchinchi smenada o‘qirdi. O‘quvchilarning yiliga 2-3 oylab qishloq xo‘jaligi ishlari bilan bandligi o‘quv ishlarini ishdan chiqarar edi. Kadrlar tayyorlashda ham faqat son izidan quvilib sifat esdan chiqdi.

Milliy tahqirlash va kamsitish ayniqsa, kadrlar siyosatida yaqqol ko‘zga tashlanardi. O‘zbekistondagi respublika, viloyat, shahar va tuman partiya va sovet tashkilotlarining rahbar hodimlari, bo‘lim boshliqlari Moskva “nomenktatura”sida bo‘lib, KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar edi. Mahalliy rahbarlar faqat nomiga qo‘yilgan asosiy ish mahalliy rahbar bo‘lmagan ikkinchi rahbar qo‘lida edi. Kadrlar tanlashda O‘zbekistonning hech qanday o‘rni va roli bo‘lmagan. Bu haqidagi quyidagi I.Usmonxo‘jayevning iqrori nihoyatda ahamiyatlidir: “Bir so‘z bilan aytganda, hamma narsani markaz hal qilardi. U nima desa, shu bo‘lardi. Hattoki obkomning bo‘lim boshlig‘idan tortib, raykomning

birinchi kotibigacha Moskva ixtiyorida turardi. Moskva topshirig'iga ko'ra 40 yoshdan oshgan kishi raykomning birinchi kotibi, 50 yoshdan oshgan kishi esa obkomning birinchi kotibi bo'la olmasdi. U har qancha ishbilarmon bo'lsin, baribir Moskva uning nomzodini o'tkazmasdi". Kadrlarni tanlash ish o'rinlariga va lavozimlarga qo'yishda xodimning ish qobiliyati, ishbilarmonligi, saviya darajasi, o'z sohasining chuqur bilimdonligi va kasb mutahassisligi kabi zarur belgilar hal qiluvchi rol o'ynamasdi. Balki hodimlarning rus tilini qay darajada bilishi, Markazga shaxsan sadoqatliligi va "baynalminalligi" hisobga olinar edi.

Mustamlakachilik va milliy tahqirlash siyosatining yorqin ko'rinishlaridan biri O'zbekiston KP MQning 1984-yil iyunida bo'lib o'tgan XVI Plenumidan so'ng Markazdan respublikaga yuborilgan "kadrlar desanti" bo'ldi. Bu hodimlar O'zbekiston Kompartiyasining faoliyatiga musaffo oqim baxsh etmoqdalar, eng yirik partiya tashkilotlarining tajribasini jamlab, undan foydalanishga yordamlashmoqdalar" deb maqtanar edi I.Usmonxo'jayev O'zbekiston KPsining XXI sezdidagi hisobot ma'ruzasid. Bu "desantchilar" respublikada sovet, huquq targ'ibot idoralarda rahbarlik lavozimlarida ishladilar va "layoqatsiz" kadrlar o'rmini egalladilar. Xuddi shu jarayon O'zbekistondan ham Rossiya Federatsiyasiga xodimlar "rejali" jo'natilgan. Ammo Markazdan kelgan xodimlar faqat rahbar lavozimlariga joylashtirilgan bo'lsa, O'zbekistonlik kadrlar faqat qora mehnat zonalarida ishlash va ish o'rganish uchun yuborilgan. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1973-yilda "Ko'chirma oilalar uchun yengilliklar" to'g'risida mahsus qaror ham qabul qilgan. Ushbu qarorga asosan har bir ko'chirma oilada albatta ikkita odam ishga yaroqli bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari yolg'iz mehnatkashlarni ham Rossiyaning turli viloyatlariga rejali yuborish O'zbekiston viloyatlari zimmasiga yuklandi. 1987yilga qadar O'zbekiston Rossiyaning noqoratuproq zonasi va Sibir hududlariga jami bo'lib 30 ming fuqaroni jo'natdi. Ko'chiriluvchilar soni yildan yilga oshib bordi. Jumladan, oilasizlar 1981-yilda 4124 bu ko'rsatkich 11099 kishiga yetdi. Demak bu jarayon yanada jadalashdi, O'zbekistonlik ishchilar yerlarni o'zlashtirish, qurilish ya'ni turar-joy binolarini qurdilar. Shunday sharoitda savol to'g'iladi O'zbekitonda

malakali kadrlar yo‘q edimi yoki Rossiyada ishchi kuchi mavjud emasmi? Bu say-harakatlarning tub zamirida boshqa g‘oya yotar edi u ulug‘ davlatchilik shovinizm siyosatining tarkibiy qismi sanalib, u kichik millitlarni assimilyasiya qilib yuborishdan iborat bosh maqsadga xizmat qiladi.

Shovinizm siyosatining barcha ijtimoiy siyosiy jabhalarda ta’siri keng ko‘lamli va u xalq yashash sharoitini yanada og‘irlashtirib borgan. Buni biz xususan qishloq xo‘jaligi sohasida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Demak qishloq xo‘jaligida sifat ko‘rsatgichlari yildan yilga pasayib bordi. Mehnatkash aholi o‘z mehnatiga yarasha haq olmaganligi sababli mehnat layoqati pasaydi. Markaz borgan sari paxta buyurtmasini oshirib bordi, lekin aholiga to‘lanadigan haq kamligicha qolaverdi. Qishloq oilasining har bir a‘zosiga to‘g‘ri keladigan oylik daromad Rossiyada 98,1 so‘mni tashkil etgan bir paytda, O‘zbekistonda o‘z tamorqasidan tushadigan daromad bilan birgalikda hisoblanganda 58,9 so‘mga teng bo‘lgan. Natijada O‘zbekiston xalqining turmush darajasi pasayib, SSSR mintaqasida oxirgi o‘rinlarga tushib qoldi. Bundayin ijtimoiy larzalarda xalqimizning o‘ta qiyinchilik bilan hayot kechirgan shunday alamli sharoitda sho‘rolar xalqining o‘zligini, tilini yo‘q qilib rus bo‘lmagan millatlarni umuman millat sifatida tobtob assimilyasiyani amalga oshirgan. Bu jarayon, xususan KPSS XXII sezdinging “Kommunizm qurish” dasturi qabul qilingach, bevosita kun tartibiga qo‘yildi. SSSRda “sotsializm to‘la va uzil kesil g‘alaba” qilgach, bevosita SSSR xalqining yangi tarixiy birligi sovet xalqi paydo bo‘ldi. Bu birlik: “Yagona Vatan-SSSR; “Yagona til-rus tili”; “yagona maqsad kommunizm”; “Yagona mafkura- marksizm leninizm” ga asoslanadi, degan g‘oyalardan kelib chiqib, “Yagona xalq-sovet xalqi”; “Yagona pasport-Sovet pasporti” qoidasini ilgari surishgacha borib yetdilar. “Baynalminal tarbiya” bayrog‘i ostida, sistemali sur’atda, 70-yidan ortiq vaqt mobaynida xaspo‘shlab olib borildi. Demak bu g‘oyalarning asl maqsadi millatning o‘zligini yo‘q qilish xalqni sovet xalqiga aylantirish edi. Barcha davlat idoralarida hujjat rus tilida olib borilishi odat tusiga kirdi. O‘zbek tili o‘z yurtda ikkinchi darajali tilga aylandi. Misol uchun 1970-yilda kitob, gazeta va jurnallar 1-million nusxada chop etilgan bo‘lsa, shundan 600 ming

(60%) nusxada rus tilida u faqat 300-400ming (30-40%) o'zbek tilida edi xolos. Holbuki, o'zbeklar O'zbekistonda 73 foizdan ortiqni tashkil etgan. Bu mustaqillik e'lon qilinishi arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida o'rganish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sof shovinistik mustamlakachilik siyosati olib borilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Xalqimizning juda boy tarixi uning madaniyati, o'ziga xos noyob xususiyatlarni bilmagan va bilishni ham xoxlamagan kelgindilar mahalliy xalqning urf-odatlarini, an'analarini oyoq osti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma'naviy qadriyatlari kamsitildi. Milliy libos kiyish qoloqlik deb baholandi. Milliy an'analar bo'yicha to'y qilgan, qarindosh urug'larini milliy va diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shavqatsiz jazolandi. Bu qadar xo'rlashlar xalqimizning sabr kosasini to'ldirib bordi. Siyosiy va mafkuraviy zug'umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o'zgara boshladi. O'tmish va hozirgi zamon muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtai nazarlar bildiriladigan bo'ldi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog'lomlashtirish kabi masalalarni ko'tara boshladilar. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha o'quv – uslubiy qo'llanmada ijtimoiy-siyosiy jarayon mustabid tuzumdan qolgan og'ir meros haqida aytib o'tilgan.

Mustabid tuzumning repressiv siyosati oqibatlarini

Yertangi kunga ishonchsizlikning ortishi

Ozgina uchqun chiqsa, lovullab yonib ketish mumkin bo'lgan vaziyat

Hukmron repressiv siyosat

Mustabid mafkura kuchning saqlanishi

Keng tarqalgan qo'rquv va vahima

Xalq kayfiyatdagi tushkunlik.

Mustabid tuzumdan qolgan og'ir meros

Sog'liqni saqlash ishlarda o'ta ayanchli ahvol

Oddiy ichimlik suvi bilan taminlanmaganligi

9 million kishining daromadi eng zarur darajadan ham pastligi

60 foiz ijtimoiy infratuzilmaning nobopligi

Bir millionga yaqin ishsiz mavjudligi

“Paxta ishi”-tuxmat, tazyiq, taqib nohaq qamalishlar.

Xalqmizni o‘z girdobiga olayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish o‘z o‘rnini o‘tab bo‘lgan mustabit tuzumdan voz kechish, rivojlangan davlatlar tajribasini har tomonlama o‘rganish, millatimizning asriy qadriyatlarni urf-odat va boy an‘analarni yanada mustahkamlash zaruriy jarayon edi.

### **“Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.**

1983 yildan boshlab sobiq KPSS Markaziy qo‘mitasi rahbarligida O‘zbekistonda navbatdagi oshkora qatag‘onga yo‘l ochildi. "Paxta ishi", "O‘zbeklar ishi", "Sharqiy front" deb atalgan mash‘um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskva yuborgan generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi.

Ma‘shum nomlar bilan atalgan kompaniyavozlik davrida yo‘l qo‘yilgan xatolar, poraxo‘rlik qo‘shib yozish, mansabni suiste‘mol qilish kabi illatlar ochib tashlandi. Biroq bu nuqsonlar sobiq Ittifoqqa, mavjud chirigan tuzumga qolaversa Markazga ham tegishli edi.

XX asrning so‘nggi choragiga kelganda o‘zida butun boshli xalqlar va millatlarni birlashtirgan sobiq Ittifoq hududida iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kela boshladi. Ittifoqqa kiruvchi davlatlar fuqorolari ongida mustaqillikabo‘lgan intilish va harakat paydo bo‘lib, o‘sib bordi. Bu holat ayniqsa Boltiqbo‘yi davlatlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Tabiiyki Ittifoq hukumati bunday intilish va harakatlarga toqat qila olmas edi va bor imkoniyatini ishga solib, zo‘ravonlik bilan bo‘lsa ham bu harakatlarni to‘xtatishga kirishdi. Ittifoq rahbarlari fikricha, bu harakatlarni to‘xtatish uchun butun boshli xalqni o‘z domiga tortuvchi siyosat ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish mo‘ljallangandi. Aynan mana shu siyosat natijasida “paxta ishi” , “o‘zbek ishi” degan uydirmalar paydo bo‘ldi va o‘zbek xalqiga nisbatan bu siyosat amalga oshirildi. Shu o‘rinda haqli bir savol



tugʻiladi. Nega aynan “oʻzbek ishi”, “latish ishi” emas, “gruzin ishi” yoki “arman ishi” emas? Tarixchi tadqiqotchilar fikrlariga koʻra, bu paytda Boltiqboʻyi davlatlarida huquqiy ong anchagina oʻsganligi, shuningdek bu hududdagi davlatlar Ittifoq hududiga nisbatan kechroq kirganliklari va Yevropa davlatlari andozasidaliklari sababli, bu hududga nisbatan bunday siyosat yurgizishdan tiyildilar. Kavkaz hududlarida esa bu siyosat natijasida qurolli qoʻzgʻolon kelib chiqishi mumkin edi. Aynan shularni inobatga olgan holda Ittifoq hukumati Oʻrta Osiyo hududini tanladiki, bu hududda yashovchi xalqlardan nisbatan koʻprogʻi, yaʼni oʻzbek xalqi bu siyosatni yuritishga ular uchun har tomonlama maʼqul kelardi. Shu siyosat bilan ular butun Ittifoq davlatlaridagi noroziliklarni toʻxtatmoqchi boʻldilar. Oʻzbekiston SSR mamlakatning asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqasi hisoblangani sababli respublika qishloq xoʻjaligi rivoji boshqa ittifoqdosh respublikalarga nisbatan ancha ogʻir, ziddiyatli jarayonlar taʼsirida qoldi. Oʻta markazlashtirilgan boshqaruv, “umumxalq manfaatlarini” roʻkach qilib olib borilgan siyosat Oʻzbekiston SSR qishloq xoʻjaligini, shu sohada band boʻlgan aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ham nihoyatda ogʻirlashtirib yubordi. Oʻrta Osiyo, ayniqsa Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining “Paxta” xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi XX asrning 80 yillarda oʻz salbiy taʼsirini koʻrsata boshlagan edi. Yillar davomida partiyaning paxta hosildorligini oshirish uchun ketma – ket berib kelgan besh yillik rejalari yerlarning chala oʻzlashtirib, belgilangan vaqtda “topshirishga”, yerning meliorativ holatini buzilishiga, ketma - ket bir xil ekinlar yekib, katta miqdordagi sarf - harajat qilinishiga sabab boʻla boshladi. Biroq, bu sarf – harajatlarda oʻzini oqlamas, markaz esa besh yillik paxta planini bajarishni qatʼiy turib talab qilar edi. Natijada olinadigan real daromad toʻliq boʻlmas, buyruqbozlik, qattiq nazorat, tazyiq oʻtkazish kuchayib borar, kamomad, oʻgʻrilik, ichki nazorat va hisob - kitobning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmaganligi ortib borar edi. Bu holatlar butun mamlakatda qoʻshib yozish degan illatlarni kuchaytirib yubordi. X.Yunusovning ilmiy tadqiqot ishida taʼkidlanishicha, SSSR FA olimlari oʻtkazgan hisob - kitoblarga koʻra, qoʻshib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng boʻlgan. Xomashyo yetkazish sohalarida

esa, qo‘shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 1977 yilda Belorussiya SSRda qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983 - 1984 yillarda 700 ming rubllik qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983 yilning o‘zida 667 sanoat korxonasi va qurilish tashkilotlarida qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilgan. Moldaviyada yesa qo‘shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo‘lsa-da, kishilar tobora ko‘proq mansab kursilarini egallab borganlar. O‘zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta‘minlovchi mintaqasi bo‘lganligi sababli qo‘shib yozishlar illati “rivojlangan” joy O‘zbekiston deb qaraldi va qo‘shib yozishlarga qarshi mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O‘zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo‘lib qoldi. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish lozimki, darhaqiqat xalq xo‘jaligidagi qo‘shib yozishlar O‘zbekistonda mavjud bo‘lib, aksariyat hollarda kolxoz va sovxozlarning mansabdor shaxslari tomonidan qo‘shib yozishlar paxta tozalash korxonalarining tayyorlov tashkilotlariga tayyorlanmagan va topshirilmagan paxtani topshirildi deb tovarsiz fakturalarni tuzish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Bunday qo‘shib yozishlarga kolxoz va sovxozning brigadasida, bo‘limida tuzilgan, ichki xo‘jalik hisobga olish ma‘lumotlari, so‘ngra zavod paxta punktining tovarsiz yozilgan, bir tomondan – kolxoz va sovxoz tomonidan, ikkinchi tomondan – paxta tozalash sanoati korxonasi tomonidan rejaning bajarilganligi to‘g‘risidagi davlat hisoboti ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni balanslashtirgan tovarsiz kvitansiyalar asos qilib olingandi. Zavod direktori va buxgalteri ushbu ma‘lumotlardan rejani bajarishgani to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarini oshirish uchun foydalanishgan va ularni respublika paxta tozalash sanoati vazirligiga hamda statistika boshqarmasiga topshirganlar. O‘zbekiston janubidagi Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy yo‘nalishlari ham paxtachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, paxtani qayta ishlash Qashqadaryoda 51 foizga teng bo‘lgan. “Paxta ishi”, “qo‘shib yozishlar” masalasi ham aslida 1983 yilda boshlangan. O‘z Kompartiya MQsining XVI Plenumi va unda Inomjon

Usmonxo‘jayevning Markazdan O‘zbekistonga kadrlar bilan “yordam berish”ni so‘rab qilgan murojatidan so‘ng bu ish avj oldi. O‘zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bular – Anishchev, Ogarok, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didarenko, Lyubimov, Kalinichenko, Korolyov, Maydanyuk, Mavrin, Litvinenko, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. “Paxta ishi” bo‘yicha juda ko‘p guruhlar tashkil qilindi. Mahalliy xalqning “harakter va psixologiyasi”ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlariga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga “yaxshi konsultatsiya”lar berdilar va shu tariqa sopini o‘zidan chiqardilar. Yuqori saviyada “maslahat” olgan guruh a‘zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo‘shib yozishlar bo‘yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo‘yicha qo‘shib yozishlar davlat rejalarini sun‘iy ravishda bajarish usuli bo‘libgina qolmay, millionlab so‘m davlat mablag‘larini suiste‘mol qilish va talon-taroj etishning sinalgan usuli edi. Poraxo‘rlik avjiga mingandi. Bunday qo‘shib yozishlar, poraxo‘rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o‘zi bo‘lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo‘jaligi direktorlari, jamoa xo‘jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalarini va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog‘liq edilar. O‘zbekiston janubida shu jumladan, Qarshi cho‘li, Surxon – Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirib, Respublikaning janubida joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan XX asrning 80 - yillariga kelib, o‘rtacha 1 million tonna paxta yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. Gektaridan olinishi lozim bo‘lgan hosildorlik yildan - yilga ortib borib, uni bajarishning iloji bo‘lmagandan keyin, qo‘shib yozish degan bir illat paydo bo‘ldi. Markaz o‘ylab topgan “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” siyosatining asorati XX asrning 80-yillaridan boshlab Qashqadaryoda yaqqol ko‘zga tashlandi. Birgina 1981-83 yillarda Qashqadaryoda halol mehnat qilib obro‘ topgan mashhur kolxoz raislari, sovxoz direktorlaridan, viloyat rahbarlari 36 kishi ishdan bo‘shatilib, ma‘muriy yo‘l bilan jazolandi. Ular orasida shahrisabzlik mashhur raislar A.Turopov, Qurbonov, sovxoz direktori N.Sharopov, Kasbi rayon xalq kontroli qo‘mitasining raisi Ziyod

Arabov, O‘zbekiston KP Bahoriston tuman qo‘mitasining ikkinchi kotibi R.Suyarov, Qarshi tuman paxta tozalash zavodi direktori Tohirovlar bor edi. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi inqiroziy holatlar, avvalo, sovet hukumatining ma‘muriy-buyruqbozlik siyosati natijasi ekanligini tergov guruhi mutlaq anglab yetmas edi. Shahrisabz tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi X.Xoliqov S.Jo‘rayev bilan birgalikda 4.651.000 ming so‘m pulni paxtaga qo‘shib yozish hisobiga pora sifatida olganliklarida ayblanganlar. Aslida, bu miqdordagi pulning 3.100.000 so‘mi Serpuxovo, Kutaisi, Boku, Orexovo-Zuyevo va boshqa shaharlardagi to‘qimachilik korxonalariga qabul qilinmagan xomashyo uchun pora sifatida berilgan edi. Shahrisabzdagi engels nomli kolxoz raisi Suvonovning so‘roq vaqtida bergan ko‘rsatmalarida bunday deyiladi; “Bizning kolxozimiz 1983-yil noyabr oylari boshida paxta tayyorlash rejasini bajardi. O‘sha vaqtdagi obkomning ikkinchi kotibi Golovachev tumanimizda vakil edi. U menga paxtani qo‘shib yozishni taklif etdi. Men unga kolxoz yillik rejani bajarganini, dalada esa paxta qolmaganini aytdim. Shundan keyin 8-9 kun davomida Golovachevning ko‘ziga ko‘rinmay yurdim. U baribir meni topib uyatli so‘zlar bilan haqorat qildi. Ikki marta urdi. Men paxtaga qo‘shib yozishga majbur bo‘ldim, paxta zavodi klassifikatoriga 180.000 ming so‘m pul berdim”. Ko‘rinib turibdiki bularning barchasi mahalliy aholi xohishlariga mutlaqo zid ravishda, qo‘l suratda markaz topshirig‘i bilan amalga oshirilgan. Xulosa qilib aytganda, XX asr 80 yillari boshlarida Ittifoq miqyosida boshlangan ijtimoiy – siyosiy muammolar, uning chekka hududlari O‘zbekiston viloyatlarini ham chetlab o‘tmadi. Markazning bu muammolarni mahalliy boshqaruv idoralarining mas‘uliyatsizligi va boshqa sun‘iy ayblovlar evaziga haspo‘shlash yo‘lidan borishi hamda turl vositalar yordamida respublikada jinoiy ishlarni boshlab yuborishi oqibatida mahalliy aholi va kadrlar qiynoqlarga duchor bo‘ldi, ularning haq-huquqi poymol etildi.

Markaziy matbuotning ba‘zi bir mualliflari Kavkaz, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining yuziga qora chaplashga harakat qila boshladilar.

Buhududlarda yashagan millatlar o‘z vaqtida mavjud jinoiy guruhlar

faoliyatiga qarshi kurashganlar, ular sotsialistik qonunchilikni buzilayotgani haqida Moskvaga arz qilishgan, biroq ularning o'zlari, ya'ni "suvni loyqalatuvchilar" quvg'inga uchraganlar. 1983yilning oxirida respublikada juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq rmarkazdan ketma-ket turli tergov guruhleri tashlandi. Respublikamizdagi rahbarlik lavozimlariga sobiq Ittifoqning bar xil joylaridan kadrlar kela boshladi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti Raisining birinchi o'rinbosari Ogarok, Oliy Kengash Prezidiumi rayisining o'rinbosari etib Romanovskiylar tayinlandi, Toshkent shahrining taqdiri Satinga topshirildi.

Respublika prokurori etib Buturlin, uning o'rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenko tayinlandi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo'lib, ular respublikadagi hukmronlikni to'la qo'lga olgan edilar.

"Paxta ishi" va "O'zbeklar ishi" deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi O'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.

1989 yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi.

Gdlyan guruhi O'zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qaraoqqa olib, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar.

O'zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo'natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko'rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi.

Yangi rahbarning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

"Paxta ishlari"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining rayisi va SSSR Adliya vaziri nomigayozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda "Paxta ishlari" chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rnigatayziqni kuchaytirdilar.

Respublika rahbarining qatiyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi.

Paxta komissiyasi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, paxta ishlari bo'yicha sudlanganlarning ko'pchiligi hayotligida oqlandi, yuzlari yorug' bo'ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o'z ish joylariga qaytishdi, musodara qilingan mulki qaytarilib, boshqa yetkazilgan moddiy zararlar qoplandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xususan, respublika rahbariyatining qatiyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Minglab begunoh fuqorolarning nomlari oqlandi.

KPSS MK Aprel (1985 y) plenumi sovet jamiyatini "qayta qurish", bu jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloh qilish" yo'lini e'lon qildi. Bunda avvalo ijtimoiy hayotni deraokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o'sishni fan texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirishga qaror qilindi.

Biroq uzoq yillar totalitar rejimga moslashgan davlat monopoliyasi, idoralari byurokratik. apparat ko'zda tutilgan rejalarni amalga oshirishga yo'l qo'ymadi.

80-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2.5 barobar o'stirish, aniqrog'i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo'yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu

hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo'jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo'shib yozish, pora berish, oshna-og'aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.

Davlat rejalashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan hal qilishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o'sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq ho'jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdorligini pasayishi hisobga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad olindi. 1989 yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi. Shu davrga kelib respublika qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar to'planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo'l qo'yilgan xatolar tufayli barbod bo'ldi. Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi 1917-yil 26-28-noyabr bo'lib o'tgan

#### **Nazorat savollar:**

1. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining sabablari nimalardan iborat edi ?
2. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi"ning mohiyati nimada?
3. "Paxta ishi" qatag'onlariga barham berish borasidagi qanday amaliy harakatlar bo'ldi?
4. O'zbekistonning mustaqilik sari tashlagan dastlabki qadamlari haqida gapirib bering?

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent-1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1996.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yyengilmas kuch. T., 2008.
4. Levitin D., Karlayl D., Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti. T., 1996.

5. Murtazayeva R va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 2003, 2005.
6. Usmonov Q va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., Moliya-iqtisod. 2006.
7. O'zbekiston Konstitutsiyasi. T., 2002.
8. G'ulomov S., Usmonov Q., Milliy mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T., 2000.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. III jild. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T., 2000.

## 2-mavzu: O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li. (2 soat)

### Reja:

1. Siyosiy islohotlarning boshlanishi.
2. Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.
3. Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli.
4. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidagi harakatlar.

**Tayanch suzlar:** *Mustaqillik, taraqqiyot, demokratiya, islohotlar, davlat tizimi, siyosat, boshqaruv, qonun, partiya, sud hokimiyati, ijro etuvchi hokimiyat, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati, rivojlanish.*

O'zbek xalqining ko'p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo'lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta'minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo'ldi. O'tgan yillar ko'hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon jarayonida o'z o'rnimizni egallash davri bo'ldi. Bu davrda biz o'zligimizni anglab, tarixiy yo'limizni uzil-



kesil tanlab oldik.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2. Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g'alaba qilishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo'linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo'linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo'llarini ko'rsatib berar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov eng avvalo bu vazifa hokimiyat barcha inoqlarning bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog'liqligini uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V-bo'lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko'ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokirniyatni amalga oshiradi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o'zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrda saylovlar belgilandi.

1993-yilni 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li

bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi I-chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo'lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis -Yangi Parlarayent demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi II-chaqiriq Oliy Majlisining VII-sessiyasida ikki palatali parlament tuzish to'g'risida umumxalq referendumini o'tkazishga qaror qilindi. Shu asosda 2002-yil 27-yanvarda o'tgan umumxalq referendumida qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentni ikki palatadan tuzilishini qo'llab-quvvatladi. O'zbekiston Respublikasida Ikki palatali parlament 2005-yildan faoliyat boshladi?

1995-yil 23-24-fevralda chaqirilgan birinchi sessiyada O'zbekiston parlamenti hokimiyat vakiliik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq Demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan "Adolat" sotsial-demokratik fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi. Oliy Majlis sessiyalarida va uning qo'mitalarida olib borilayotgan ishlar asosan mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarish, qonunchilikni sifat darajasini yuksaltirishga qaratilgan. Qonunlar qabul qilinmasdan oldin umumxalq mubokamasiga taqdim qilinishi islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta'sir qildi. 1997-aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi. Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo'lib, uning huquqiy holatini aniq ravshan belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qonunMarkaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir.

Ushbu qonunda:

"Oliy Majlisning inson huquqiari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi",-deb ta'kidlangan.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo'lib, u ijtimoiy manfaatlarning muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng maqbul davlat tizimi

yaratilishiga ko‘maklashadi. Qonun ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg‘unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoida-qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik har bir kishi uchun ochiq ekanligini tasdiqlaydi.

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko‘rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda Qonun qabul qilingunga qadar ham Inson huquqlari bo‘yicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat ko‘rsatib keldi. Jumladan, birgina 1996-yilda Inson huquqlari bo‘yicha vakil hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiya a‘zolari 700 dan ortiq murojaatni ko‘rib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar o‘z tasdig‘ini topgan va zarur choralar ko‘rilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasining Jenevada bo‘lib o‘tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so‘zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo‘yicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so‘zga chiqdi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil faoliyatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyat qurilishi uchun mustahkam poydevor qo‘yildi Oliy Majlis "O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida", "O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to‘g‘risida", "O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida", "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida", "Siyosiy partiyalar to‘g‘risida" qonunlarni, Mehnat kodeksi (1995), "Fuqarolik Kodeksi"ning (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko‘plab qonunlar va qarorlar qabul qildi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo‘lib, saylangan deputatlardan O‘zbekiston

Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi ma’ruzasidan kelib chiqadigan "2000-2002-yillarga mo‘ljallangan qonunchilik va nazorat faoliyatining ustivorlik jihatlari to‘g‘risida"gi hujjatni tasdiqladi. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV-sessiyasida (2000-yil 14-dekabr) Oliy Majlisning O‘zbekiston xalqiga Murojaatida: "Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug‘ istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo‘lib kurashaylik. Maqsadimiz -Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir"-deyilgan.

Mustaqillikning tayanch nuqtalaridan biri prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishi bo‘ldi. Bu bilan davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladiki, Prezidentlik boshqaruvi shu tizimning o‘zagidir. 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekistonda prezidentlik lavozimiga umumxalq saylovi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan, birinchi kunlaridan boshlab, uning boshida Islom Abdug‘aniyevich Karimov turdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda erishilgan yutuqlar: mamlakatda O‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o‘rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o‘rnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog‘laydilar.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Prezident I.Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 2000 yil 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi -2000 yil 9 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi

yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida"gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekistonda prezidentlik instituti o‘rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar ketigashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya‘ni Rayis, Bosh Vazir, uning ikki birinchi o‘rinbosari, to‘rt o‘rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo‘mitasi rayisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995 yil 5 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IT sessiyasi bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to‘g‘risidagi Prezidentning Farmonini tasdiqlash masalasi ko‘rildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig‘ilishida (2000 y. 11 fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov yangi hukumatning mas‘uliyatli faoliyatini quyidagicha bayon qildi:

"Vatanimiz o‘z taraqqiyoti yo‘lida yangi ufqlar va yangi maqsadlarga intilayotgan bir paytda, jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarini yangi bosqichga ko‘tarish, ya‘ni, hayotiraizni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davrida bu javobgarlik nihoyatda ortadi.

Bu lavozimlarga tavsiya etilayotgan nomzodlar bir haqiqatni chuqur anglab, o'z ongidan, yuragidan o'tkazishlari kerakki, deydi I.A.Karimov-odamlarimizning ertangi hayotdan kutayotgan orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi, Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi bu rahbarlarning o'z vazifasini halol va malakali bajarishga, qolaversa, fidoyiligiga ko'p jihatdan bog'liq". Boshqaruv tizimining boshqa bo'g'inlari ham bozor iqtisodining O'zbekistonga xos yo'liga moslashtirildi. O'zbekiston Oliy Kengashining Mustaqillik Dekloratsiyasi 1990-yil 20-iyunda e'lon qilindi. O'zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasi 12 ta moddadan iborat.

1991-yil 6-sentabrda Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish raqsadida Mudofaa ishiari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa Vazirligiga bo'ysundirildi.

Mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi, 1997-yildan ushbu qo'mita Makroiqtisodiyot Vazirligiga aylantirildi.

Xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tishzaruriyati bilan bog'liq bo'ldi. "O'zdonmahsulot", "O'zbekneftgaz" va boshqa ko'plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991-yil 7-sentabrda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat nrilliy banki tashkil qilindi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'luraotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Sobiq Ittifoq manfaatlarini birinchi galda qondiruvchi idoralar tugatilib, yangi shakldagi qo'mitalar, konsernlar va vazirliklar tashkil etildi. Bu bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida o'z milliy taraqqiyotiga mos, vatan

mustaqilligini mustahkamlovchi boshqaruv tizimi vujudga keltirildi.

O'zbekistonda davlatning boshqaruvni to'liq monopoliya qilishdan cheklanish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish, aholi turli tabaqalarining hokimiyat tizimida ishtirok etishini ta'minlashning yana bir yo'li mahalliy davlat hokimiyatlarini shakllantirish ekanligi e'tirof etildi.

1990-1992-yillari O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish, maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular orasida 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risidagi" qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ-hokimlik va hokim lavozimi ta'sis etildi va uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo'yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog'liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyatlar hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari-ijroiya komitetlari tugatildi

Hokimlarning huquqiy vakolatining asosi, avvalo, Konstitutsiyaning 99 va 102 moddalari va yuqorida tilga olingan qonunning 1- moddasida belgilangan.

Konstitutsiya va qonun normalarini umumlashtirsak, hokim tegishli hududda vakillik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladi va ayni paytda shu yerdagi mansabdor shaxs hisoblanadi. Hokimlar mahalliy hokimiyatni boshqarar ekanlar, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqaradigan yaxlit ijro hokimiyat organlari tizimi tarkibiga kiradi. Shuningdek "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun (1993-yil, sentabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida"gi Qonun (1994-yil, may) kabi hujjatlar muhim o'rin egallaydiki, ular kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishini

huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Oliy Majlis palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o'zgarishlar mahalliy axborot vositalarining musafailligi va erkinligini ta'minlamasdan turib mumkin emas deb qayd etdi. 2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 elektron axborot vositalari ishlarida.

So'nggi yillarda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. 2002-yilning 27-yanvarida umumxalq referendumini o'tkazilib bunda O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tish, Prezident vakolatini besh yildan yetti yilga uzaytirish masalalari hal qilindi. 11-chaqiriq Oliy majlisning X-sessiyasi (2002-yil dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» qonunlar qabul qildi.

2003-yilning 24-25-aprel II-chaqiriq Oliy Majlisning XI-sessiyasi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgarishlar kiritadi. Xususan, Prezident vakolatining bir qismi yuqori palata deb nomlanuvchi Senatga o'tadi.

Prezident Vazirlar Mahkamasi rayisi lavozimidan voz kechadi; quyi palata deb nomlanuvchi Qonunchilik palatasida deputatlar doimiy ravishda ish olib boradi.

2004-yilning 26-dekabri va 2005 yilning 9-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekiston fuqarolarining faol ishtiroki va mahalliy hainda xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillarining nazoratidan o'tgan saylov natijasida qonunchilik palatasiga 120 deputatlar saylandi. Bular Xalq demokratik partiyasidan 28 nafar, Liberal-demokratik partiyasidan 41, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan 18, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan 11, Adolat sotsial demokratik partiyasidan 10 nafar deputatlar saylandi. 12 deputat tashabbuskor guruhlardandir. Mahalliy hokimiyat organlaridan yuqori palata Senatga har viloyatdan 6 nafardan jami 84 senator saylandi, yana 16 senator Prezident tomonidan ko'rsatilgan.

Mamlakatimiz yangi asrga kirar ekan, jamiyatda siyosiy demokratik



islohotlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida (1999 yil, 14 aprel) O'zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Shulardan **birinchi ustivor o'nalish-mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.**

#### **Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida:**

-avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili-odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodajash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim.

Davlat qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirishmasalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar hokimiyat barchgt tarmoqlarini bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuaarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza bilish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga katta umid bog'lanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'z-o'zini boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"-deydi.

O'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an'analarni, tarixiy qadriyatlarni tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo'lni tanlash nuqtai nazaridan yondashish bo'ldi. Xususan, o'z-o'zini

boshqarishda asosiy tayanch qilib mahallalar belgilandi. Ular inson qalbida Vatan tuygʻusining shakllanishiga, milliy gʻururning vujudga kelishida, millatchilik illatlaridan xoli boʻlishda katta taʼsir koʻrsatib kelgan.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati demokratik jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatini kuchaytirmoqda, bu esa oʻz navbatida asosiy maqsad- fuqarolik jamiyatini qurishga koʻmaklashmoqda. Oʻz-oʻzini boshqarish muassasalari faoliyatining kengayishi bevosita mahallalarning mavqeyini kuchaytirish bilan bogʻliq. Oʻz-oʻzini boshqarish organlari yoki raahallalarning vazifasi, aholini davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini taʼminlash kam taʼminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, maʼnaviy kamolatini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yoʻqotish uchun ish olib borish va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalarga, Vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir.

Shuningdek, mahallalarda "Mahalla" xayriya jamgʻarmasi yordamga muhtoj oilalarga yordam koʻrsatmoqda. Bu jamgʻarma 1994-yilda 200 ga yaqin shaxs va oilaga 41 ming 189 soʻmlik yordam koʻrsatgan. Faqat Oʻzbekistonga xos boʻlgan va aynan mahalla bilan bogʻliq boʻlgan "Korxonah-mahalla" iqtisodiy hududni tashkil qilish masalasi katta umid uygʻotmoqda. 1995-yili davomida respublika boʻyicha shu turdagi 204 ta kichik va xususiy korxonah tashkil qilinib, ularning faoliyati orqali 3300 kishi ish bilan taʼminlangan. -Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvarda "Aholini aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy madad bilan taʼminlashda fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari rolini oshirish toʻgʻrisida"gi farmoni ijtimoiy himoya sohasida oʻz-oʻzini boshqarish organlariga yangi vakolatlar berishni koʻzda tutadi: 1) fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari ijtimoiy roʻlini oshirish; 2) hududlarni ijtimoiy rivojlantirish; 3)muhtoj oilalarga aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy madad koʻrsatishni takomillashtirish.

Davlat tomonidan bajariladigan vazifalarni fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish organlariga oʻtkazilishi, nodavlat tashkilotlar faoliyatini

takomillashtirish, undagi jamoa ruhi va tabiatini mustahkamlashni, samaradorligini oshirishni talab qiladi. 1999-yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri aynan shu maqsadga qaratilgan.

O'zbekistonda mahalla timsolida o'z-o'zini boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotlarning noyob shakli azaldan mavjud bo'lib kelgan. Mahallalarda obodonchilikka, xalqning ma'murligiga, el-yurt farovonligiga xizmat qiladigan ishlar soni ko'paydi. Mahalla davr o'zgarishlariga, talablariga moslasha boshladi. Qadimiy va navqiron mahalla jonlanib, unga fayz kirdi. O'z-o'zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi choralardan yana biri-aholiga kompleks tarzda savdo, mayishiy va madaniy xizmatlar ko'rsatadigan guzarlar faoliyatidir.

Bunday iqtisodiy erkinliklar fuqarolarda mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarga ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, har bir shaxsning fikri, ovozi e'tiborga olinishi, ularni fuqarolik jamiyatining a'zosi ekanligini his qilishlari uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis II chaqiriq 1-majlisida (2000-yil 22.01) Prezident I.A.Karimov O'zining "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz" nomii ma'ruzasida ushbu masalaning dolzarbligini shunday uqtiradi:

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning O'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur.

Bu borada O'zini-o'zi boshqaradigan idoralarning, mahallalarning nufuzini va mavqeyini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etish yo'lidagi ishlarimizning mazmun-mohiyatini ham aynan mana shu masala tashkil etadi.

2003-yilning noyabr-dekabr oylarida fuqarolarning O'zini-o'zi boshqarish organlariga (mahallalarga) navbatdagi saylovlar bo'lib o'tdi. Ro'yxatga olingan saylovchilardan 12 mln. dan ortiq kishi, ya'ni 97% ovoz berishda qatnashdi. (2001 yilgi saylovlardan 85% qatnashgan edi.). Jami 8.360 nafar oqsoqollar va 80 mingdan ko'proq maslahatchilar saylandi. Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi

hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati boshqa hokimiyatlar kabi xalq manfaatlarini koʻzlab va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qabul qilingan qonunlar asosida Oʻz vakolatlarini amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagicha: besh yil muddatga saylanadigan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xoʻjalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xoʻjalik sudlari, harbiy sudlar.

Mazkur sudlarning huquqiy holati Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, Oʻzbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Sudlar toʻgʻrisida"gi Qonunida bayon etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi-fuqarolik, jinoiy va maʼmuriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Shu bilan birga ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslarga; oldin sudlanmaganlarga, biron bir joyda ishlamasdan, moʻmay pul topish yoʻliga oʻtib ketganlarga nisbatan belgilangan jazolarni qonun kuchidan toʻla foydalanilmagan ishlarning jazo qismini yengil deb bekor qilib, ogʻirroq jazolashga oʻz koʻrsatmasini beradi.

Respublika Oliy sudi 1994yilda 149 kishiga nisbatan quyi sudlar tomonidan tayinlangan jazolar ogʻir deb topilganligi sababli hukmlar oʻzgartirilib, jazolar qisqartirilgan boʻlsa, 1995-yilda 247 kishiga nisbatan jazolar ogʻir deb topilib, hukmlar oʻzgartirildi, 25 shaxsga nisbatan jinoiy ishlar sudlanganlarning harakatida jinoyat tarkibi yoʻqligi sababli harakatdan toʻxtatildi.

Ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etganligi uchun 1994-yilda quyi sudlar tomonidan 89 kishiga nisbatan belgilangan jazolar yengil deb topilib, hukmlar bekor qilingan boʻlsa, 1995-yilda 70 kishiga nisbatan quyi sudlar belgilangan jazolar yengil deb, hukmlar bekor qilindi va yangidan sud majlisida koʻrish uchun yuborildi.

Oʻzbekistonda sud tizimini isloh qilish, sud hokimiyatini shakllantirishda ham bir muncha ishlar qilindi. Sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid

barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar yanada rivojlantirildi. 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar va qarorlar ustida sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdi. Respublika xo'jalik sudlari istiqloqlarning so'nggi yillarida o'zlarining faoliyatini aniq iqtisodiy vazifalar bilan bog'lab olib bormoqda. Xususan xo'jalik sudlari 1995-2000 yillarda jami 128.000 nizolarni ko'rib chiqqan va 271,4 mlrd. so'm mablag'ni da'vogarlarga undirib bergan. Keyingi 6 yil mobaynida xo'jalik sudlarining qarorlari asosida davlat boji va jarimalar hisobidan respublika budjetiga 4,3 mlrd, so'm mablag' undirilgan.

2000-yilning 1-yarmida mazkur tizimda 17.000 dan ziyod ish ko'rib chiqildi. Natijada, 53,4 mlrd. so'miik hajmdagi zarar da'vogarlar foydasiga undirib berildi. Mamlakat budjetiga 550 mln. so'm tushum tushirildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) "Adolat qonun ustivorligida" nomli ma'ruzasida sog'lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko'ra, jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o'tdi. Ma'ruzada O'zbekistonning deraokratiya va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlantirishning o'tgan o'n yil ichida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida sodir etilgan tub o'zgartirishlarning muhimligi ta'kidlanib, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini insonparvarlik, adolat, huquqiy fuqarolik jamiyati prinsiplariga muvofiq ravishda erkinlashtirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Davlatimiz rahbari sudlar faoliyatiga baho berib "Sud bugungi kunda avvalgidek, hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarni ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda",-dedi. Shuningdek, ma'ruzada sud hokimiyati tizirnidagi kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada Prezident: "...afsuski sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim

bo'lgan kishilarainig dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgarayapti. Eng avvalo jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adoiat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo'llanishini ta'minlashimiz zarur"-deydi. Ma'ruzada Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan o'zgarishlar, masalan, 110 turdagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazish, 12 turdagi jinoyatni og'ir toifadan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga, 7 turini esa o'ta og'ir jinoyatlar toifasidan og'ir jinoyatlar toifasiga o'tkazish haqidagi takliflar bayon qilindi. Shuningdek, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta'sir choralarini qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, butun jahonda muhokama etilayotgan muhim masalalardan biri o'lim jazosini jinoiyjazo chorasi sifatida qolayotganligi bilan bog'liq muammolar, qonunchiligimizda jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosini qo'llash tartibini qayta ko'rib chiqish, voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimini qayta ko'rib chiqish, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiigini erkinlashtirish va demokratlashtirishda ishlarni ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish, jinoiy ishlarni tergov qilish va sudda ko'rish muddatlarini qisqartirish kabi dolzarb vazifalar va takliflar mohiyati chuqur bayon qilib berildi. Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar jinoiy ishlarga taalluqli qonunlarni erkinlashtirish va demokratlashtirish sari tashlangan muhim hamda ma'suliyatli qadam ekanligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qabul qilgan qarorining 2 bandida shunday deyiladi:

"Ma'ruzaning jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustivorligini ta'minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilish sari qaratilgan yo'lni hayotga tatbiq etishga (doir dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin."

Insoniyat tarixida yangi davr-inson huquqlari davri boshlandi. g'irlashgan Miilatlar Tashkiloti 1995-2005 yillarni kurrimizda "Inson huquqlari o'n yilligi" deb e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash; 2. inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning umume'tirof etilgan taraoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish; qabul qilingan. 3.qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash; 4. sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan sud tizimini demokratlashtirish; 5.aholi ayniqsa yosblar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning birdan bir zaruriy sharti sud-huquq organlarining ishlarini isloh qilish va erkinlashtirishni jadallashtirishdan iborat. Sudlar faoliyatiga prokuraturaning aralashmasligi, prokuror va advokatlarni huquqlarini tenglashtirish, sudlarning tarbiyaviy rolini oshirish lozimligini taqqoslab ko'rsatadi. I.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida (2005y. 28 yanvar).

Xavfsiz jinoyatlarni ma'muriy choralar bilan almashtirish natijasida so'nggi 2,5 yil davomida 11 mlrd. so'm undirildi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda O'zbekistonda 158 kishi qamoqda muddatini o'tamoqda. Bu ko'rsatkich AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog'istonda 386 kishidan iborat.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo'shildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarinj muhofaza

qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida" 1996-yil 31-oktabr farmoni e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda "Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi"ni tasdiqladi. Dasturda: "Jamiyat va davlat taraqqiyotini hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarini huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldidaturgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi.

Milliy dasturning maqsad ahamiyati aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir"-deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida" (1997-yil, 25-iyun) farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonning 1-bandida shunday deyiladi:

"Aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidari olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilansin".

Respublikamizda istiqlol yillari milliy davlatchilikni barpo etish borasida sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga, uning hokimiyat va bosbqaruv organlariga barham berish bilan bir vaqtda davlat va jamiyat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili odarnlarning saylov huquqlarini



amalga oshirish, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash uchun zaryr huquqiy shart-sharoit, qonuniy asos yaratishdir. Shu bois mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning o'z hohish-irodasini erkin ifoda etishni ta'minlovchi saylov tizimini shakllantirish va uni qonun bilan mustahkamlasb borasida talay ishlar qilindi.

1991-yil noyabrida Parlament "O'zbekiston Respublikasining prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun bilan birga Oliy Kengash 1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risida"gi qonunni ham qabul qildi. 1991-yil 29-dekabrida muqobillik asosida O'zbekiston tarixida birinchi marta respublika prezidentligiga saylovlar o'tkazildi.

Konstitutsiyamiz asosida 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun va nihoyat "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunlari o'zbek saylov qonunchiligi tizimini huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi alohida qonun qabul qilinganligi saylovlarni to'g'ri tashkil qilish, saylov qonunlarini to'la ishlashiga imkoniyat yaratadi va qonunlarni nazorat qilishni kuchaytirishda hamda saylovlarni tashkil etish va uni o'tkazishda davlat hokimiyati organlarining ortiqcha aralashuvini cheklaydi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarni tahlil qilsak, unda jahon saylov tajribasida erishilgan eng demokratik tartiblarning huquqiy jihatdan mustahkamlanish bilan birga, O'zbekiston saylov tizimiga xos bo'lgan xususiyatlarning ham beigilanganligini ko'ramiz. Bu O'zbekiston saylov tizimigagina xos xususiyatdir.

Saylov tizimini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" degan siyosiy dasturida asoslanib berilgan maqsad tomon harakatning yana bir muhim bosqichi, deb tushunraoq kerak.

Bizning saylov qonunchiligimiz ko'pgina xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar tomonidan O'rganilmoqda.

Xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tegishli ekspertlari ham O‘zbekiston saylov qonunchiligi mohiyati demokratik ekanligini, uning saylovlarni tashkil etish sohasidagi xalqaro huquqni tan olingan tamoyillariga mos kelishini ta’kidlaydilar. Rossiya Federatsiyasi Markaziy saylov komissiyasi qoshidagi ilmiy-metodik kengash a’zolaridan biri:

"Men keyingi yillar davomida O‘zbekistonda qabul qilingan saylov to‘g‘risidagi qonunlarni o‘rganib chiqdim. Shuni alohida ta’kidlashimlozimki, amaldagi saylov to‘g‘risidagi qonunlaringiz jahon andoxalari darajasida ishlab chiqilgan bo‘lib. bu qonunlar amaliyoti o‘z oldiga huquqiy davlat barpo etishdek ulkan vazifa qo‘ygan davlat uchun tayanch bo‘laoladi",-deydi. O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatida fuqarolar o‘zlarining siyosiy huquqlari va erkinliklarini davlat va jamiyat ishlarini bajarish ularni idora etishda faol qatnashisti orqaji amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarinina, takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlol yillari vujudga kelgan siyosiy partiyalar o‘z faoliyatida o‘zbek xalqining eng yaxshi demokratik an‘analariga, adolat, ezgulik, tenglik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g‘oyalarga, axloqiy va odamiylik qoidalariga suyanadi. Ular o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Siyosiy partiyalar to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi 1996-yil 26-dekabr qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek o‘z dasturlariga asosan amalga oshiradilar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi aniq va ravshan belgilab berilgan. Ko‘ppartiyaviylik demokratik taraqqiyot yo‘lida erishgan muhim yutuqlardan biridir.

Birinchiidan, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida siyosiy partiyaning o‘rni va roli muntazam ravishda yoritib boradi; ikkinchiidan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida O‘zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishda ko‘ppartiyaviylik tizimi muhim demokratik institut hisoblanadi; uchinchidan, davlat bosh islohotchi sifatida siyosiy partiyalarining

faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega; to'rtinchidan, siyosiy partiyalarsiz vakillik demokratiyasini tasavvur etib bo'lmaydi; beshinchidan, siyosiy partiyalarning o'rni va mavqei ularning soni yoki vaqt bilan belgilanmaydi; oltinchidan, mamlakatda amalda ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi yangi g'oyalar, muqobil takliflar bilan demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qilishi lozim.

Ko'ppartiyaviylik asosida saylovlar o'tkazish quyidagilarni bildiradi: huquqiy jihatdan ro'yxatga olingan barcha siyosiy partiyalarning saylov kampaniyasida ishtirok etish; Konstitutsiya va qonun taidablari doirasida o'z nomzodlarini Oliy Majlis deputatligiga ko'rsatish huquqi va kafolatli shart-sharoitini yaratish; siyosiy partiyalarning barcha darajalardagi saylov komissiyalarining ishida qatnashish huquqi va kafolatli shart-sharoit yaratish; Oliy sudga zarur hollarda esa Konstitutsiyaviy sudga Oliy Majlisga saylovlar haqidagi qonunning buzilishi faktlari ustidan shikoyat qilish huquqidir.

Xalq demokratik partiyasi siyosiy partiya sifatida mamlakatda birinchilardan bo'lib 1991-yil 1-noyabrda tashkil topdi. 440 ming a'zoga ega bo'lgan bu partiya I-chaqiriq Oliy Kengashga 69 deputat sayladi. II-chaqiriq Oliy Majlisga 48 deputat sayladi. A'zolarining soni 2001-yilning 1 mayiga kelib, 557 ming 168 ta bo'ldi.

Maqsadi-O'zbekistondagi har bir fuqaroning millati, dini, e'tiqodi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishidan qafi nazar moddiy va ma'naviy barkamol hayot kechirish uchun keng imkoniyat yaratish, kishilarning konstitutsion huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, ularning sha'ni va qadr-qimmati, tinch hayot kechirishini himoya qilish. "Vatan taraqqiyoti" partiyasi 1992-yili 24-mayida tashkil topgan bo'lib, 35 ming a'zosi bor edi. I-chaqiriq Oliy Kengashga 14 deputat saylandi. II-chaqiriq Oliy Majlisga 20 deputat saylandi. Maqsadi-O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy- ma'naviy asoslarini barpo etish, yurtimizni jahonning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylantirish.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yili 18-fevralda tashkil topdi va 30 ming a'zoga ega bo'ldi. Oliy Kengashdagi fraksiyasiga 47 deputat birlashdi. "Adolat" SDP sining hozirda 33 ming a'zosi bo'lib, ulardan II

chaqiriq Oliy Majlisga 11 deputat saylandi.

Maqsadi - Mustaqil O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan huquqiy demokratik davlat barpo etish, jamiyatda ijtimoiy adolatni yanada mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini, yuksak ma'naviyat va ma'rifatni qaror toptirishga ko'maklashish. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi 1995 yil 3 iyunda tashkil topdi. MTDP a'zolarining soni dastlab 6 mingta bo'lib, hozirda 11 mingdan oshdi. II chaqiriq Oliy Majlisga bu partiyadan 10 kishi deputatlikka saylandi. Maqsadi-Milliy manfaatlar zaminidagi yangi o'zbek davlatining asoslarini yaratish, huquqiy davlat va fuqarolar jamiyatini barpo etish, O'zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish.

Fidokorlar milliy demokratik partiyasi 1998 yil 28 dekabrda tashkil topdi. Uning 20 ming 500 a'zosi bo'lib, II chaqiriq Oliy Majlis deputatlarining 34 nafari Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga mansub a'zolardir. FMDP bilan "Vatan taraqqiyoti" partiyasi 2000 yilning 14 aprelida birlashdi va 54 deputat Oliy Majlisda Fidokorlar Milliy Demokratik partiyasi fraksiyasini tuzdi.

Maqsadi - erkin bozor iqtisodiga suyangan ochiq, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish, el-yurt hayot darajasini taraqqiy topgan davlatlar va xalqlar darajasiga ko'tarish, jahon hamjamiyatida davlatimiz va jamiyatimizning o'ziga munosib o'rin egallashigaamaliy hissa qo'shish. O'zbekistonda "Xalq birligi" harakati ham 1995 yil iyundan faoliyat ko'rsatmoqda.

Harakatning asosiy maqsadi - ko'p millatlik mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida shakllangan ushbu partiyalarning dasturlarida sog'lom muxolifatchilik ko'rinmaydi. Faqatgina O'zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi dasturida jamiyatda uchrab turgan ayrim qonunsizliklar, suiste'molchilik, oshna-og'aynigarchilik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, aqidaparastlik

illatlariga nisbatan muholifatda bo'lishi ta'kidlangan, xolos. Siyosiy hayotni erkinlashtirish, siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish vazifalari ko'ndalang bo'lib turgan bugungi kunda partiyalar o'z o'rinlarini aniq topishmoqdalar.

Shu nuqtayi nazardan yondoshganda harakat dasturlarida o'zaro yaqinlik bo'lganligi sababli hamda demokratik jarayonlarining talablarini hisobga olgan holda "Vatan taraqqiyoti" partiyasi bilan FMDPning o'zaro birlashishi ham shu ruhni o'zida aks ettiradi. Mustaqillik yillarida respublikamizda jamoat tashkilotlarining saflari oshib, imkoniyatlari kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki besh yilida jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar soni 1500 taga ko'payib, ularning soni 2300 taga yetdi: ular faqat aholi fikrlarining turli ko'rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari 7,5 mln. a'zoni birlashtirib, jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi 1991-yil 1-martda tashkil topdi. Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarni faol ishtirok etishi, xotin-qizlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek "Nuroniy", "Ustoz", "Ulug'fayek", "Umid", "Xotira" va shu kabi ko'plab jamg'armalar nodavlat tashkilotlar sifatida respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta hissalarini qo'shmoqda.

2001-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov "Kamolot" jamg'armasi faollarini qabul qildi va yoshlarning bu tashkilotini raustaqillik davridagi rolini oshirish vazifasini qo'ydi va "Kamolot" jamg'armasi yoshlarning haqiqiy yetakchisi, uyushtimvchisi va boshqaruvchi ommaviy tashkilotga aylanishini zarur deb topdi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" 1989- 1991-yillar va 1992-yil 5-yanvargacha voqealari va jarayonlarini yoritib bergan. 1989-1991-yillarda olib borilgan jo'shqin, jasoratli va serqirra ijtimoiy-siyosiy faoliyatni haqqoniy yoritishda muhim manbadir. "O'zbekiston

mustaqillikka erishish ostonasida” asarida uning 35 ta ma’ruza maqola, suhbat, intervyu, nutqlari berilgan

2001-yilning 25-aprelida O‘zbekiston Milliy universitetining Madaniyat saroyida Respublika yoshlari vakillarining birinchi qurultoyida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Qurultoyda ijtimoiy harakatning nizomi va dasturi qabul qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan buyon Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan chuqur o‘ylangan milliy siyosat amalga oshirilmoqda.

Davlat umummilliy siyosatiga milliy siyosatdan tashqari iqtisodiy va sotsial, ilmiy-texnika, ta’lim va sog‘liqni saqlash, xalqaro munosabatlar (tashqi siyosat) milliy xavfsizlik va boshqa siyosatlar kiradi. Ijtimoiy himoya-yili» davlat dasturining bajarilishiga tashkil etish va uning monitoringini olib borish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 12-dekabr kungi 2632-sonli farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan Respublika komissiyasi zimmasiga topshirilgan? «Ijtimoiy himoya-yili»da qabul qilingan dastur va rejalarning bosh maqsadi Xalqimiz uchun munosib turmush sharoit yaratish edi?

O‘zbekiston umummilliy siyosatining katta tizimida milliy aholi siyosati alohida o‘rin egallaydi. Bu siyosat diqqat markazida millatidan qafi nazar inson turadi. Bunda milliy aholi siyosati respubiika aholisiga xos sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston poliyetnik, ya’ni ko‘p elatli davlat turiga mansub bo‘lib, davlatga o‘z nomini bergan millat - o‘zbeklar (1996-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra - 76,4%) - ahoini soni bo‘yicha ko‘pchilikni tashkii qiladi.

1999-yilga kelib bu muvozanatda qisman o‘zgarish bo‘ldi. Mamlakatimizda o‘zbeklar aholining deyarli 80 foizini tashkil etsa, qolganlar esa kam sonli millatlar vakillaridir.

"Ijtimoiy fikr" markazi toraonidan respublika Baynalmilal madaniy rmarkaz hamda milliy madaniy markazlar vakillari ishtirokida "Mustaqil O‘zbekistonda fuqarolarning - elatlararo va konfessiyalararo munosabatlari" yuzasidan 1999 yil 14-18 noyabrda sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. unda o‘z faoliyati bilan 150 mingdan

ortiq kishini va yirik milliy guruhlarni qamrab olgan 24 ta Milly madaniy markaz ishtirok etdi. Unga ko'ra quyidagicha asosiy xulosalar chiqarilgan:

- O'zbekistondagi barcha etnik guruhlar uchun eng asosiysi. O'zbekistonni O'z vatani deb his etishdir;

- turli elatlar va konfessiyalar vakillari o'zaro hurmat, tushunish va to'la kelishuvchanlik muhitida faoliyat ko'rsatmoqdalar;

- O'zbekiston fuqarolari, ularning mitlatidan qafiy nazar, mustaqil O'zbekistondagi elatlararo kelishuv va moslashuvchanlik fenomeni-davlatimizdagi barqarorlik va fuqarolar tinchligining eng muhim 1 faktorlaridan biridir, degan yagona fikrdalar;

- fuqarolarning millatlaridan qafi nazar ularning huquqiy tengligi, iqtisodiy va ijtimoiy erkinligi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan;

- tub millat boshqa etnik guruhlar bilan birgalikda umumijtimoiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarini tezlashtirish va rag'batlantirishning ulkan salohiyatini tashkil etadi, yuzaga kelgan millatlararo munosabatlar esa tinchlik va barqarorlikni, har bir oilaga munosib hayotni ta'minlash kafolati bo'lib xizmat qiladi;

- kelajakda bashorat etish mumkinki, O'zbekistondagi elatlararo va konfessiyalararo mutanosiblik o'zbek xalqining ma'naviy yangilanishi va milliy tafakkurning o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatning yangilanish va uning demokratiyalashuvida kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi, "respublikaning jahon hamjamoatchiligi bilan integratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi"

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoraiik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaring muhim tayanchi bo'lganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari

erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi",-deyilgan. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, ularning xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

Sovet tuzumi barcha totalitar va avtoritar tuzumlar kabi ommaviy axborot vositalarini muhim tashviqot va targ'ibot vositalari hisoblar edi hamda matbuotdan, radio va televideniya aynan shu maqsadda-xalqni kommunistik mafkurani kerakli yo'nalishda targ'ib va tashviq qilishda foydalandi.

Ommaviy axborot vositalari mustabid tuzimga bo'ysungan bo'lib, bir xil fikr, bir xil qarash barcha gazeta va jurnallarga xos edi. Bu kishilarimizni fikriy qoloq qilib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniya vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga bo'ldi.

O'zbekistonda 2001-yil-yanvargacha-390 ta gazeta; tajurnal; 2 ta axborot agentligi; 52 ta telestudiya; 5 ta radiostudiya; 3 ta teleradiostansiyalar kabi ommaviy axborot vositalari mavjud bo'lib, ular erkin faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy majlisning palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o'zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta'minlamasdan mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 elektron axborot vositalari ishlamoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning shaxsan tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan yana ikki Qonun: O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik kasbini himoya qilish to'g'risida" hamda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tom ma'noda ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mavjud bo'lmagan qonunlardir. Ushbu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to'la miqyosda



ta'minlaydigan huquqiy qurol bo'lib, aholi uchun axborot olish va yetkazishning bosh vositachisi deb qaraluvchi jurnalistning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ommaviy axborot vositasi to'g'risida I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining (1996-yil, avgust) 6-sessiyasida shunday degan edi:

"Matbuot, axborot vositalari demokratik rivojlanishi uchun ulkan ahamiyatga ega. Biroq shuni ham e'tirof etish kerakki, demokratlashtirish jarayonida hozircha ommaviy axborot vositasining faol roli sezilmayapti.

Ular shu paytgacha o'zlarini "to'rtinchi hokimiyat" sifatida namoyonqilganlari yo'q". Istiqloq yillarida ommaviy axborot vositalari mansabdorlarning to'rachiligi, korrupsiya, mustabidlik va boqimandalik psixologiyasi yo'lida mustahkam g'ov bo'lib, qonunchilikni ro'yobga chiqarish islohotlarning borishi va inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning ta'sirchan vositasi bo'lib qolmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish masalasi tashqi siyosiy faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanchalik tez kirib borishi ana shu axborot vositalari tarqatadigan xabarlarining to'g'riligiga bog'liq.

Ayni paytda shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni vaqtda ular jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim.

1997-yil 27-may kuni Milliy matbuot markazida "Jurnalistlarning huquqiy madaniyati va huquqiy bilimlarini oshirish - davr talabi" mavzuida anjuman bo'ldi.

Matbuot, radio va televideniye siyosatga ta'sir ko'rsatish, siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismiga hamda milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini keng xalq ommasiga yetkazishning, jamiyatni demokratiyalashtirishning o'tkir quroliga aylantirishi lozim. Shundagina to'la ma'nodagi to'rtinchi hokimiyat-ommaviy

axborot vositalari tizimi vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston ijtimoiy hayotida televideniye va radio rolini ko'tarish to'g'risida"gi 1997-yil 7-maydagi Farmoni yuqorida ko'rsatilgan masalalarni meyoriy tartibga solishda ko'riladigan chora-tadbirlarning ommaviy ifodasi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yaratilgan boshqaruv tizimi va uning qonunchilik asoslari, fuqarolik jamiyati mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishga va huquqiy demokratik davlat barpo etilganligini kafolatlaydi. Zero, Prezident I.Karimovning Oliy Majlis II chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan nutqi (2002-yil, 29- avgust), Qonunchilik palatasi va Senat qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida (2005-yil, 28-yanvar) omrnaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirish to'g'risida amaliy takliflarni ilgari surdi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Mustaqil O'zbekistonda dastlab qanday siyosiy islohotlar amalga oshirishdan boshlandi?
2. Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi qanday?
3. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyatini tushuntirib bering?
4. Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli qanday?
5. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidagi harakatlar bu...?

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent-1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T., 1996.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yyengilmas kuch. T., 2008.

4. Levitin D., Karlayl D., Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti. T., 1996.
5. Murtazayeva R va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 2003, 2005.
6. Usmonov Q va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., Moliya-iqtisod. 2006.
7. O'zbekiston Konstitutsiyasi. T., 2002.
8. G'ulomov S., Usmonov Q., Milliy mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T., 2000.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. III jild. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T., 2000.

**3-mavzu: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. (2 soat)**

**Reja:**

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.
2. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.
3. O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan davlatlar qatorida.
4. 2017-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va istiqbollari.

***Tayanch so‘zlar:** O‘zbekiston Respublikasi, besh ustuvor yo‘nalish, islohot, rivojlanish, qaror, farmon, xalq, farovonlik, iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy soxa, sud-huvuv tizimi, tashqi siyosat, millatlararo totuvlik, yaxshi qo‘shnichilik.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 7 fevral kuni “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni tasdiqladi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqiga ega bo‘lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash garovi ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o‘z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘lini tanlash, rivojlanishning o‘zbek modelini yaratish imkoniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi: ijtimoiy hayotda amalga oshirilayotgan tub demokratik o‘zgarishlar. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz

chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini amalga oshirishda faol ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlar Nodavlat-notijorat tashkilotlari.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Besh tamoyildan iborat bo'lgan “O'zbek modeli -Strategik taraqqiyot yo'li modeli. Taraqqiyotning “O'zbek modeli” O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”asarida keltirilgan. Bozor munosabatlariga o'tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kunidan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo'lgan vaqtni davrlari o'z ichiga oladi. Bozor munosabatlariga o'tish davrining birinchi bosqichida quyidagi vazifalar hal qilindi.

- 1) ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlari yengib o'tildi;
- 2) bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllantirildi.

Bozorga sotish uchun olib chiqilgan tovarlar yig'indisiga- taklif deyiladi. Bozor mexanizmini izdan chiqaruvchi xatti-harakat- narxlar ustidan yalpi nazorat

o‘rnatish.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan **2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi**(keyingi o‘rinlarda—Harakatlar strategiyasi) 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq

xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish: 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari teng o'sgan sohalar sanoat mahsulotlari hajmi va qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;



farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini

modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar: davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rnini va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2020 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ma'lumotlari

Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy o'sish -

2019 yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning (YAIM) o'sish sur'ati 5,4 foiz belgilangan prognoz ko'rsatkichi o'rniga 5,5 foizni tashkil etdi hamda 2018 yilda erishilgan 5,1 foiz ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi. YAIM o'sish sur'ati

asosan sanoatning 6,4 foizga (prognoz – 5,2 foiz), qurilish 11,8 foizga (8,4 foiz) va xizmatlarning 6,1 foizga (6,3 foiz) oshishi hisobiga ta'minlandi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi 1 741 dollarni tashkil etib, 2018 yilga qaraganda 13,6 foizga oshdi (2018 yilda – 1 533 dollar). 2017 yilda milliy valyutaning ikki marta qadrsizlanishiga qaramasdan, 2019 yilda dollar ekvivalentidagi YAIM hajmi deyarli devalvatsiya amalga oshirilgan davrdagi ko'rsatkichni qayd etdi. Ma'lumot uchun: nominal YAIMning dollar ekvivalentidagi hajmi 2017 yilda 59,1 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda qariyb – 58,3 mlrd. dollarni yoki 99 foizini tashkil etdi. 2018 yilda esa 50,5 mlrd. dollarni tashkil etgan edi.

YAIM umumiy o'sishida 1,9 foiz bandi xizmatlar, 1,5 foiz bandi sanoat, 0,9 foiz bandi qishloq xo'jaligi, 0,6 foiz bandi qurilish va 0,6 foiz bandi mahsulotga sof soliqlar hissasiga to'g'ri keldi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligi iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan yalpi taklif va ichki talab o'rtasidagi o'zaro muvozanati, investitsiyalarni yuqori sur'atda ya'ni 28,6 foizga hamda aholi real daromadlarini 10 foizga o'sishini qo'llab-quvvatlash hisobiga ta'minlandi. Shu bilan birga, erishilgan natijalarga qaramasdan, aholi jon boshiga YAIM hajmi jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan anchagina orqada qolmoqda va demografik holatni inobatga olganda iqtisodiyot qamrov darajasining pastligi, aholi daromadlari va jamg'armalarining cheklanganligidan dalolat beradi. Mehnat bozorida kuchli demografik bosimning saqlanib qolinishi va natijada, yetarli miqdordagi ish o'rinlarini yaratish muammosi ishsizlik darajasini kamaytirish masalalarini hal etishni murakkablashtiradi. Murakkab vaziyatning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: Birinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal etish jarayoni jahon tajribasidan kelib chiqib, uzoq muddatni talab etadi; Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda fundamental xarakterga ega bo'lgan muammolar xususan, mulkchilikka bo'lgan munosabat, tovar va xizmat bozorlarini monopoliyadan chiqarilishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning natijalarini taqsimlash hamda fuqarolik jamiyatini boshqarish jarayonlariga imkoni boricha ko'proq aholini jalb qiladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda inklyuziv institutlarni shakllantirish to'liq hal

etilmadi. Inflyatsiya darajasi 2019 yilda 15,2 foizni tashkil etdi (prognoz - 15,5 foiz). Yil davomida oziq-ovqat tovarlari 18,6 foizga oshdi, xususan, narxlarning erkinlashtirilishi natijasida 1-navli bug‘doy unidan tayyorlangan non o‘rtacha 44,6 foizga hamda go‘sht mahsulotlaridan mol go‘shining narxi 26,6 foizga qimmatlashdi.

*Nooziq-ovqat tovarlar* narxlari 10,9 foizga o‘shib, ular orasida inflyatsiya darajasining o‘shishi avtotransport vositalariga yonilg‘i narxlarining 20,8 foizga oshishi bilan bog‘liq.

*Xizmatlarga* tariflar 15,2 foizga o‘shib, bunda asosan tartibga solinadigan tariflar ya‘ni uy-joy kommunal to‘lovlari o‘rtacha 17,8 foizga, Oliy ta‘lim muassasalarida to‘lov shartnoma asosida o‘qish 30,6 foizga oshgan.

Inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun cheklovchi choralar ko‘rilib, bunda tovarlar bozorida raqobat muhitini cheklovchi, manzilli va individual xarakterdagi soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish amaliyoti bekor qilindi. 2019 yilda yuqori inflyatsiya darajasini saqlanib qolinishining asosiy sabablari, tartibga solinadigan narxlarning erkinlashtirilishi (3,6 foiz), milliy valyuta kursining devalvatsiyasi (3,7 foiz), iqtisodiyotga kredit qo‘yilmalarining o‘shishi, davlat budjeti taqchilligi va ish haqi (4,1 foiz), inflyatsiya kutilishi (2,1 foiz) va boshqa omillar (1,7 foiz) hisobiga to‘g‘ri keldi. Inflyatsiyaga ta‘sir etuvchi tarkibiy omillardan kelib chiqib, 2020 yilda narxlarning o‘shishi prognoz parametrlarini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari: tarif siyosati bilan birgalikda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish va tarkibiy o‘zgarish jarayonlarini faollashtirishni; kreditlarning o‘shishini (25 foiz) prognoz doirasida ta‘minlashni; haddan tashqari davlat budjeti taqchilligining o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi. Bundan tashqari, bank tizimida direktiv kreditlash amaliyotidan voz kechib, moliya bozorida raqobat muhitini yaratishga qaratilgan islohotlar davom ettiriladi. Shuningdek, iqtisodiyotda mehnat unumdorligini o‘shishiga muvofiq ish haqi miqdorini oshirishga o‘tilishini ta‘minlash, biznes va aholi o‘rtasida energiya resurslari tariflarining o‘shishi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish choralarini ko‘rish lozim. Umuman olganda, vakolatli organlar

inflyatsiyani pasaytirish tamoyiliga tayangan holda, samarali tarkibiy o'zgarishlarni, investitsiya faolligining o'sishi va iqtisodiy o'sishdan olingan daromadlarni inklyuziv taqsimlash omillari orqali amalga oshiradi. Davlat budjetining ijrosi 2019 yilda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari 137 trln.so'mni (YAIMga nisbatan 26,1 foiz) yoki 2018 yilga nisbatan 27 foizga ko'paydi (2018 yilda daromadlar 108 trln.so'mni tashkil etgan). 2019 yilda Davlat budjeti daromadlari ijrosi 112,1 trln. so'mni tashkil etib, yil davomida belgilangan prognoz 9,5 trln. so'mga oshirib bajarilgan. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari 24,3 trln. so'mni tashkil etib, belgilangan 19,0 trln.so'm prognoz, 5,4 trln. so'mga oshirib ijro etildi. Davlat budjeti va Pensiya jamg'armasi daromadlarining ko'payishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir etgan:

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining real o'sishi; olib borilgan soliq islohotlariga muvofiq QQS, yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mulk solig'i va yer solig'ining soliq bazalari kengayishi; jismoniy shaxslar daromad solig'ida yagona 12 foizli stavkaning joriy etilishi va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalining bekor qilinishi hisobiga ish haqining sezilarli o'sishi hamda soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirish munosabati bilan ish o'rinlarini tashkil etish va legallashtirishi; 2019 yil 1 oktabrdan boshlab, import qilingan tovarlar uchun bir qator bojxona imtiyozlari bekor qilindi.Import qilinadigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning bekor qilinishi munosabati bilan qo'shimcha daromad 828 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosan, yog'och mahsulotlari - 220 mlrd. so'm va avtomobilsozlik sanoati - 213 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2019 yilda Konsolidatsiyalashgan budjetning (Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari) xarajatlari 144,7 trln. so'mni (YAIMga nisbatan 27,6 foiz)ni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 37 foizga ko'paydi. Ulardan davlat budjeti xarajatlari 117,8 trln. so'mni (o'sish 49 foiz) yoki tasdiqlangan xarajatlarga nisbatan 12,2 trln. so'mga ortiqni tashkil etdi. Davlat budjetining qo'shimcha xarajatlari asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati

organlarining qarorlariga muvofiq “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlarini amalga oshirishga, ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish (kapital ta’mir) uchun sarf-xarajatlar hajmini oshirishga hamda davlat sektori xodimlariga ish haqi to’lashga yo’naltirilgan. Ijtimoiy sohaga yo’naltirilgan xarajatlar, jumladan kapital xarajatlar hisobga olgan holda 61,3 trln. so’mni yoki davlat budjeti xarajatlarining 52 foizini tashkil etdi. Davlat sektori xodimlariga ish haqini to’lash xarajatlari hajmi 52,5 trln. so’mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 39 foizga ko’paydi. Davlat qarzi bilan bog’liq xizmat xarajatlari (foiz xarajatlar) 1,1 trln. so’mni tashkil qilib, 2018 yilga nisbatan 3 baravarga ko’pdir. Konsolidatsiyalashgan budjet (Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg’armalari bilan birga) taqchilligi 2019 yilda 7,7 trln. so’mni yokida YAIMga nisbatan 1,5 foizni tashkil qildi. Bunda davlat budjetining taqchilligi YAIMga nisbatan 1,1 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, budjet taqchilligi hamda 2,1 trln. so’m asosiy qarzni qoplash xarajatlari quyidagi moliyaviy manbalar: 2019 yil boshiga nisbatan respublika budjeti va Pensiya jamg’armasining qoldiq mablag’lari - 3,1 trln. so’m; davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar - 1,1 trln. so’m; budjetni qo’llab quvvatlash uchun Xalqaro moliya institutlarining qarz mablag’lari - 5,6 trln. so’m yoki 621 mln. AQSH dollar ekvivalenti hisobiga qoplanadi.

Tarkibiy islohotlarni jadallashtirish va tarmoqlarni moliyalashtirish 2019 yilda markazlashmagan investitsiyalar birinchi navbatda iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirishga olib keladigan yoqilg’i-energetika, to’qimachilik va tikuv-trikotaj, kimyo, elektrotexnika, zargarlik, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga yo’naltirildi. Natijada, 145 ta yirik ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, iqtisodiyotda sanoatlashuv darajasi o’sish tendensiyasi kuzatilib, YAIM tarkibida sanoatning ulushi 2018 yildagi 26,3 foizdan 2019 yilda 29,0 foizga oshdi.

Yil yakuni bilan iqtisodiyotga investitsiyalar hajmi 128,6 foizga o’sib, qariyb 21 mlrd. dollarni tashkil etdi. Biroq, bugungi kunda investitsiyalar tarkibida sanoatga yo’naltirilgan investitsiyalarning ulushi 33,4 foizini tashkil etganligi yuqori qo’shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaradigan raqobatbardosh



tarmoqlarni yaratish uchun yetarli emas. Shu o'ringda, investitsiya va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lmay qolmoqda. Xususan, investitsiyalarning katta oqimi, jumladan xorijiy va respublikaning tijorat banklari mablag'lari konchilik tarmoqlariga (neft xom-ashyosi, tabiiy gaz va metall rudalarini qazib olish) to'g'ri keladi. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarida yengil sanoat va qurilish materiallari asosiy o'rin egallamoqda. Ta'kidlash joizki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'tgan yilga nisbatan keskin o'sishi asosan neft xom-ashyosi va tabiiy gaz qazib olish, qurilish materiallari va yengil sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'lsa, yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika kabi sanoat tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nisbatan past darajada bo'ldi. Shuningdek, neft va gaz, elektr energiya va havo transporti kabi bazaviy tarmoqlarda boshlangan tarkibiy o'zgartirishlar hali yakuniga yetkazilmadi. Tariflarni oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilamaydi balki, sohaga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilishni ta'minlovchi neft-gaz va elektr energiya tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan chora-tadbirlarni kechiktirmasdan o'z vaqtida amalga oshirishni talab qiladi. Iqtisodiyotda sanoatning diversifikatsiya jarayoni past darajada saqlanib qolmoqda, bundan kelib chiqib, holatni yaxshilash uchun sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan 13 ta tarmoq dasturlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish lozim. Ayrim mahsulotlar bozorida (neft mahsulotlari, tayyor to'qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqalar) talab va taklif o'rtasida nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Iqtisodiyotning qator tarmoqlarida tannarxning yuqoriligi va mehnat unumdorligining pastligi mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirmoqda. Asosiy tovar va xizmatlar bozorida davlat korxonalarining monopol mavqei saqlanib qolinmoqda. Jumladan, Oziq-ovqat, yog'-moy va paxta tozalash sanoatini boshqarish tizimida ularning iqtisodiyotdagi monopol mavqeini pasaytirishga qaratilgan islohotlar yakunlanmadi.

*Markazlashgan investitsiyalar* hajmi ijtimoiy va sanoat infratuzilmalari,

shuningdek, boshqa davlat obyektlar loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, 2018 yilga nisbatan 66 foizga oshdi. Vazirlik, idora va mahalliy boshqaruv organlari kapital qo'yilmalarning yuqori o'sish sur'atlariga qaramasdan, kelgusi moliyaviy davr uchun ajratilgan budjet mablag'lari hajmiga mos kelmaydigan va belgilangan muddatlar inobatga olinmasdan kiritiladigan, investitsiya arizalarni taqdim etish bo'yicha budjet intizomi mavjud emas. Shuningdek, ayrim ijtimoiy yo'nalishlardagi tarmoqlarni rivojlantirish strategiya va konsepsiyalarining mavjud emasligi, loyiha tashabbuskorlariga ajratilgan kapital qo'yilmalarni kompleks va samarali o'zlashtirishini ta'minlamayapti. Vazirliklar, idora-buyurtmachilarda loyiha hujjatlarini texnik tavsiflarni ishlab chiqish tizimi mavjud emas, bu esa bajariladigan ishlar xarajatlarining asossiz o'sishiga, shuningdek, tasdiqlangan hujjatlarni o'zgartirishga olib keladi. Bundan tashqari, alohida loyihalar (obyektlar) bo'yicha ishlarni bajarish bilan loyiha hujjatlar bir vaqtda ishlab chiqish amaliyoti saqlanib qolmoqda, bu esa budjet ajratmalarini rejalashtirishda zarur bo'lgan kapital qo'yilmalar miqdorini aniq belgilashga imkon bermaydi. Ishlarni bajarish vaqtida loyiha hujjatlarining mavjud emasligi bajarilgan ish hajmi narxining oshishiga, ishlab chiqarish va qurilish jarayonlarini tashkil etish sifatini zaruriy nazoratini zaiflashishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat: Sanoat o'sishining rag'batlantiruvchi muhim omillaridan biri tashqi talab bo'lib, u eksportning o'sishi bilan ifodalanadi. 2019 yilning 11 oyi natijalariga ko'ra, tovarlar va xizmatlar eksporti (qimmatbaho metallar va tabiiy gazdan tashqari) 122,7 foizga va eksportyor korxonalar soni 1 138 taga oshdi. Shu bilan birga, umumiy eksport tarkibida xom-ashyoga yo'naltirilganlik darajasi saqlanib qolmoqda (57,2 foiz), yoki tovarlar eksportida ushbu ko'rsatkich 70,8 foizni tashkil etmoqda. Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tomonidan tovarlar va xizmatlar eksporti 2,3 mlrd.dollarni (umumiy eksportning 14,1 foiz), shundan xizmatlar eksporti 54,1 mln.dollarni tashkil etdi. Eksportning xom-ashyoga yo'naltirilishining asosiy sabablari: tayyor mahsulot tannarxining yuqoriligi natijasida raqobatbardosh emasligi (masalan qo'shni davlatlardan maishiy elektr texnikalarini import qilish, bojxona to'lovlari va

transport xarajatini inobatga olgan holda ham mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlaridan arzonga tushadi);

- milliy sifat standartlarini xalqaro standartlarga nomuvofiqligi yoki ularni ko'plab xorijiy mamlakatlarda tan olinmasligi hisoblanadi. Meva va sabzavotlar ulushi jami eksportda 7 foizni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 137,9 foizga o'sdi. Bunda asosiy ulushni sabzavotlar (38,7 foiz) egalladi. Ushbu mahsulotlarni eksport qilinishiga to'sqinlik qiluvchi omillar: mazkur mahsulotlarning sifati import qiluvchi mamlakatning fitosanitar talablariga mos kelmasligi; saqlash quvvatlarining yetarli emasligi; xorijiy ulgurji va chakana savdo tarmoqlari bilan aloqalarning yo'qligi hisoblanadi. Qayta ishlash tarmoqlarida eksportning eng yuqori o'sish ko'rsatkichi to'qimachilik mahsulotlariga (124,6 foiz) to'g'ri keldi. Shu bilan birga, ushbu mahsulotlar eksportida ip kalava eksportining yuqori ulushi saqlanib qolinmoqda. Bunda, tarmoqda GSP+ tizimiga qo'shilish jarayonlari yakunlanmaganligi, aralash gazlamaning yo'qligi tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, metallurgiya, charm-poyabzal sanoatida ishlab chiqarish hajmlari o'sishiga qaramay, ushbu tarmoqlar bo'yicha eksport hajmi pastligicha qolmoqda. 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida eksportdan tushgan valyuta tushumi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga o'sib, tabiiy gaz eksporti bilan birga 8,4 mlrd.dollarga yetdi. Bunda, 2019 yilning 1 dekabr holatiga eksport amaliyotlari bo'yicha muddati o'tgan debitorlik qarzi 501,7 mln.dollarni tashkil etdi. 2019 yilning 11 oyida tovarlar importi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 mlrd.dollarga o'sib, 19,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalalar, shu jumladan butlovchi va ehtiyot qismlar (44,1 foiz), kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar (13 foiz), shuningdek oziq ovqat mahsulotlari (7,6 foiz) egalladi. 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida import to'lovlarining summasi 18,6 mlrd.dollarga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32 foizga o'sgan. Bunda, 2019 yilning 1 dekabr holatiga import amaliyotlari bo'yicha muddati o'tgan debitorlik qarzi 490,8 mln.dollarni tashkil etdi.

#### **Nazorat savollari:**

1. “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da Ta’limni isloh qilish qaysi yo‘nalishda ko‘rsatilgan ?
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma’ruzalarida jamiyat masalalari bo‘yicha ilgari surilgan ustuvor vazifalar nimalardan iborat?
3. 2017-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va istiqbollari nimalardan iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" PF-4947-sonli farmoni.
2. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” O‘zbekiston T.2017.
3. Sh.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” O‘zbekiston. T.2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi, 2018 yil 28 dekabr.
6. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. -T.:“O‘zbekiston”, 1996-2016.

### **II. Internet ma’lumotlari**

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.press-uz.info](http://www.press-uz.info)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
7. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
8. [www.senat.uz](http://www.senat.uz)

**4-mavzu: Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari. (2 soat)**

### **Reja:**

1. Qonun ustivorligini ta'minlashning ahamiyati.
2. Sud – huquq tizimini isloh qilish zaruriyati
3. Tizimdagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari

***Tayanch suzlar:** Kostitutsiya, adolat, qonun ustivorligi, inson huquqi, islohot, “Harakatlar strategiyasi”, sud-huquq tizimi, yo'nalish, erkinlik, sudya, prokuror, advokat, jazo.*

Qonun ustivorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh ilishning ustuvor yo'nalishlari. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish: sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlash darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish; sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqligi tamoyillarini xar tomonlama tatbiq etish; «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish; sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

**Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:** fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va befarq munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash; fuqarolarining hususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish

kafolatlarini mustahkamlash; fuqarolarning odil sudlovga toʻsqinliksiz erishishini taʼminlash; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

**Maʼmuriy, jinoyat, fuqarolik va xoʻjalik qonunchiligini takomillashtirish:** jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoyi qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvapashtirish; odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, maʼmuriy, jinoyat, fuqarolik va xoʻjalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish; jinoyat, fuqarolik va xoʻjalik ishlarini koʻrib chiqish tartibini takomillashtirish, bir birini takrorlovchi vakolat va instansiyalarni qisqartirish; elektron sud ish yurituvi va ijro ishi yurituvining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

**Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:** jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish boʻyicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish; aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan oʻzaro samarali hamkorligini tashkil etish.

#### **Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:**

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini oʻqitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida

huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash. Sud taraflarga kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish mexanizmi yordamida bartaraf etishni taklif qilishi shartligi Belgiya davlat tajribasida bor.

**Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:** davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish; advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va ho'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokat o'rnini oshirish; notariat va FHDYO organlari tizimini isloh qilish.

Milliy qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi. Binobarin, Kodeksga 1994 yildan bugungi kunga qadar 60 dan ortiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligining asosiy sababi ham shundadir. Bundan tashhari, Kodeksga bu qadar ko'p o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishining quyidagi obyektiv sabablari ham bor. Birinchidan, mazkur holat kodeks tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasining kengligi va turlitumanligi hamda mazkur munosabatlarga doir islohotlarning izchil ravishda

amalga oshirilayotganligi. Ikkinchidan, davlat boshqaruvi sohasini takomillashtirishga oid o'zgarishlar bo'layotganligi. Uchinchidan, mamlakatimizda jinoiy va ma'muriy yurisdiksiyada belgilangan jazolarni liberallashtirishga doir islohotlarning amalga oshirilayotganligi. To'rtinchidan, ijtimoiy munosabatlarning muayyan jabhasini tartibga solishga qaratilgan yangi qonun hujjatining qabul qilinishi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlar ishtirokchilari uchun ma'muriy javobgarlikni belgilashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelayotganligi shular jumlasidandir. Binobarin, Kodeks va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng hamrovli islohotlar jarayonida ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini takidlasho'rinlidir. Ayni paytda, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'yayotgani barchamizga ma'lumdir. Shu ma'noda, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi —Mamlaka-timizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasill nomli ma'ruzasida faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan qolda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni har tomonlama qayta ishlash va yangi tahririni qabul qilish lozimligiga oid taklifning o'z vaqtida ilgari surilganligi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, mazkur Kodeksni qabul qilish zarurati Kontsepsiyada ham ta'kidlangan bo'lib, birinchidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi tahriri sudhuquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik, jinoiyhuquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi printsipial o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamli tarzda aks ettirishi lozimligida. Bunda avvalambor, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni nazarda tutish zarur.



Ikkinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, yanada demokratlashtirish lozim. Uchinchidan, Kodeks bilan tartibga solinadigan sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashhari, ma'ruzada Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o'nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiya-lashuvini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Vaqt doim harakatda, munosabatlar esa o'zgaruvchan bo'ladi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi tahririni tayyorlashda huquqni qo'llash amaliyotida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Xususan, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab kiritilgan va u samarasini berayotgan yarashuv institutini ma'muriy yurisdiksiyada ham joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'lmoqda. Shuningdek, Kodeksda jinoyat qonunchiligini tobora liberallasuvi inobatga olgan qolda ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan mamuriy yurisdiksiyaga o'tkazishni belgilash zarur. Bunda Jinoyat kodeksidagi kam ahamiyatli qilmishlar va mazkur harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat tarkiblarini ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish lozim. Jumladan, Jinoyat kodeksining 148-moddasi (mehnat qilish huquqini buzish), 184-moddasi birinchi qismi (soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash) kabilar shular jumlasidandir. Zero, huquqni qo'llash amaliyotida mehnat qilish huquqini buzganlik uchun shaxsga nisbatan avval ma'muriy jazosini qo'llagandan so'ng, qayta mazkur qilmishni sodir etish qollari uchramaydi. Bundan tashhari, Jinoyat kodeksining 148-moddasi (mehnat qilish huquqini buzish) bo'yicha deyarli jinoiy javobgarlikka tortish holatlar uchramaydi.

Bundan tashhari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-

moddasiga binoan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Nazarimizda, ushbu moddadagi kam ahamiyatli ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasini Kodeksning tegishli moddalarida aniqlashtirish lozim. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda, xususan Rossiya davlati qonunchiligida —ogohlantirish<sup>ll</sup> ma'muriy jazo tariqasida e'tirof etilgan. Nazarimizda, mazkur tajribani ham milliy qonunchilikda mustahkamlab qo'yish lozim. Zero, bugungi kunda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbuzarga berilgan —ogohlantirish<sup>ll</sup> chorasi hech bir protsessual hujjatda qayd etilmaydi va aynan ushbu shaxs tomonidan takroran huquqbuzarlik sodir etilganda o'z-o'zidan inobatga olinmaydi. Shuningdek, Kodeksning 286-288-moddalarida ma'muriy yo'l bilan ushlab turish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, 286-moddaga binoan ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning harindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yiladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinishligi belgilangan. Bu o'rinda, fikrimizcha, mazkur normada shaxsning ushlab turilgani haqida aynan qancha muddat ichida uning yaqinlari xabardor qilinishini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Kodeksning 288-moddasiga binoan chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan qollarda esa - ushlab turish paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o'n sutkagacha muddatga ushlab turilishi mumkin. Nazarimizda, mazkur normadagi ma'muriy ushlab turishning muddatini uzaytirish to'g'risidagi masalani hal etish vakolatini prokurordan sudga o'tkazish lozim. Bu esa o'z navbatida, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining —qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi qonunida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 8 apreldagi —Qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va valyuta boyliklari saylanishi ta’minlanmaganligi va ulardan to‘g‘ri foydalanilmaganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risidagi 124-sonli qarorida yuridik shaxslarning ma’muriy javobgarligiga doir qoidalar belgilangan. Bu esa o‘z navbatida ma’muriy javobgarlikning subyekti sifatida yuridik shaxslarning javobgarligini Kodeksda belgilashni taqozo etadi. Ayni paytda mazkur tajribani Rossiya, Belarus va bir qator Yevropa mamlakatlari qonunchiligida belgilangan bo‘lib, bu borada yuridik shaxslar javobgarligining kodeksda belgilanishi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan ma’muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini ta’minlaydi.

Bundan tashhari, yangi tahrirda qabul qilinadigan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda ma’muriy jazolarning muqobil turi sifatida ogohlantirish, muayyan muddatga faoliyatni to‘xtatib turish, faoliyatni ma’muriy to‘xtatib turish kabi jazolarini kiritish, ayniqsa yuridik shaxslarning ma’muriy javobgarligini belgilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish hamda Kontseptsiyada ilgari surilgan holatlarning inobatga olinishi, o‘z navbatida sohaga oid qonunchilik tizimining yanada unifikatsiyalashuviga va huquqni qo‘llash amaliyotining samaradorligiga xizmat qiladi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlatning boshqa tuzilmalaridan fuqarolar va inson huquq hamda erkinliklarini himoya qilish va ularning buzilishiga qo‘l qo‘ymaslik vakolatlariga ega. Shu o‘rinda aytish joizki,

huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy vazifalariga qonunbuzarliklarni oldini olish, prokuror nazorati, tegishli protsessual hatti-harakatlarni bajarish, huquqiy yordam ko'rsatish hamda sud qarorlarini ijro etish kiradi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Kontsepsiyada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonuniylikni ta'minlash borasidagi vazifalariga alohida urg'u berildi. Shu o'rinda ushbu organlarning vakolatlari doirasiga faqatgina nazorat funksiyalari kirmasdan, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish ham taalluqli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasilda ko'rsatilganidek, adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Adliya, prokuratura va ichki ishlar organlari vakolatlari doirasi o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadigan huquqni muhofaza qilish tizimining hozirgi holati idoralararo munosabatlarda manfaatlar muvozanatiga erishish va o'zaro tiyib turishning samarali mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Bu maqsadga erishish yo'lida, dastlab, huquqni muhofaza qilish tizimining mavjud tuzilmasini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining prokuratura va ichki ishlar organlari faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vakolatlarini kuchaytirish orqali takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qilish tizimining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish talab etiladi. Jumladan, adliya, prokuratura, ichki ishlar va sud organlari o'rtasidagi munosabatlar tadqiq qilinganda, xorijiy davlatlarning ba'zilarida prokuratura sud tizim tarkibiga kirishi, boshqalarida – adliya vazirligiga buysunishi, yana bir guruh davlatlarda esa prokuratura sud va adliya organlaridan mustaqil ekanligi ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasini sud-huquq tizimini isloh etish sohasida

amalgga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishining 6 bandiga ko'ra bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olib mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy tarqibotni tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi loyihasini tayyorlash vazifasi belgilangan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining yangi tahririni tayyorlash va ko'rib chiqishning ahamiyati va zaruriyatini bir qator omillarga ko'ra tavsiflash mumkin. Eng avvalo deputatlar korpusi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, maslahat berish va ma'rifiy faoliyatni amalga oshirayotgan fuqarolik institutlarining fuqarolarning huquqiy madaniyatini, yuksak huquqiy ongini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishdagi faoliyatining samarali muvofiqlashtirishni ta'minlash zarur. Bunday keng ko'lamdagi huquqiy madaniyatni yuksaltirish faoliyatini amalga oshirishda huquqiy tarbiya va targ'ibotning zamonaviy ta'sirchan shakl va usullaridan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Eng muhimi, aholining, huquqiy soha xodimlarining, maslahat berish va ma'rifiy ishlarni amalga oshiruvchi jamoat birlashmalari xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida haralmoq'i shart. qolaversa fuqarolarga huquqiy ta'lim berish va ularni tarbiyalash ularda qonunlarga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish sohasidagi ishlarni samarali tashkil etishga nafaqat so'zda, balki amalda erishishni ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat berilishi lozim. Shuningdek huquqiy bilimlar markazlari tarmoqlarini, ayniqsa qishloq joylarda yanada rivojlantirishni, masofadan turib huquqiy maslahatlar ko'rsatish hamda ommaviy axborot vositalarida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan doimiy ruknlarni ko'paytirish, ushbu sohaga oid yangi o'quv dasturlari, darsliklar va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish yo'li bilan fuqarolarning huquqiy axborotdan erkin foydalanishini kengaytirish bilan bog'liq bir qator vazifalarni hal etish qayd etilgan milliy dasturni yangi tahrirda ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Fuqarolarning bilim saviyasi va

ijro etish mas'uliyatining oshishi, tegishli tashkilotlar mansabdor shaxslari huquqiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining ishlab chiqilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirishda normativ huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur loyihani tayyorlash maqsadida bir qator tashkiliy-huquqiy choratadbirlarni shuningdek, amaldagi

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturini hayotga qo'llash tajribasini inobatga olib, asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etilmoqda.

Birinchiidan, —Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturining monitoringini o'tkazib, mavjud muammolar, ularni hal qilish choralari ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchiidan, huquqiy targ'ibotni idora-lararo uvofiqlashtirishning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Uchinchiidan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning media rejalarini har yili ishlab chiqib, uni ijrosini to'liq ta'minlash choralari ko'rish zarur. Ushbu rejada qonunchilik, ijro va sud hokimiya-tining bu boradagi faoliyat yo'nalishlari aniq qolda ko'rsatilishi lozim.

To'rtinchiidan, mamlakatimizda davlat korxonalari, nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda oylik huquqiy bilimlar kunini joriy etish, huquqiy targ'ibotga oid maxsus teleko'rsatuv va radioyeshittirishlarni, ularning efir vaqtlarini qat'iy belgilab, uni amalga oshirish choralari ko'rish.

Beshinchiidan, aholining va huquqni qo'llovchi subyektlarning huquqiy xabardorlik darajasini oshirish maqsadida qonun hujjatlarining rasmiy manbalardan (shu jumladan elektron dastur shaklida) foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish lozim.

Oltinchiidan, huquqiy mavzularda yozadigan jurnalistlarni tayyorlash, ularni ixtisoslashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan

subyektlar matbuot xizmatlarining bu boradagi vakolatlarini belgilash va uni takomillashtirish choralarini ko‘rish talab etilmoqda.

Yettinchidan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining huquqiy targ‘ibotda faolligini oshirish choralarini ko‘rish kerak.

Sakkizinchidan, huquqiy ta’lim va ma’rifatga hamda huquqiy bilimlar targ‘iboti uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor va mas’ul shaxslarning tasdiqlangan reja va dasturlar ijrosini ta’minlash borasidagi mas’uliyatini oshirish zarur. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda huquqiy ta’lim va bilimni, ma’rifatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirishni fuqarolarning qonunga itoatkorlik tuyg‘usini yanada ortishiga xizmat qiladi. o‘z navbatida ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini taminlash bilan birga fuqarolarimizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga, jamiyatimizning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini to‘liq ta’minlanishiga xizmat qiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da sud-huquq tizimi qaysi yo‘nalishda ko‘rsatilgan ?
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma’ruzalarida sud-huquq masalalari bo‘yicha ilgari surilgan ustuvor vazifalar nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasida qonun ustivorligini ta’minlashning ahamiyatini nimalardan iborat?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" PF-4947-sonli farmoni.
2. SH.Mirziyoyev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt

taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” O‘zbekiston T.2017.

3.SH.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” O‘zbekiston. T.2017.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi, 2018 yil 28 dekabr.

6.Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. -T.:“O‘zbekiston”, 1996-2016.

## **II. Интернет маълумотлари**

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.press-uz.info](http://www.press-uz.info)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)



**IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**  
**1-mavzu: O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.**

**Amaliy mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.**


Vaqt – 2soat	Tinglovchilar soni: _____ nafar.
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha amaliy mashg‘uloti.
Seminar mashg‘ulotining rejasi	O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bos-qichlari va xususiyatlari. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvimavzusiga oid bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; -bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish; -o‘z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; -kommunikatsiya, guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Tinglovchi: Bozor iqtisodiyoti tushunchasi va uning asosiy belgilari haqida ma’lumotlar bera oladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligini izohlab bera oladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlari to‘g‘risida o‘z tushunchalariga ega bo‘ladi. O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li va xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bera oladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish O‘zbekiston ichki siyosatining negizi ekanligini izohlab bera oladi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Munozara, taqdimot, blits-so‘rov, bayon qilish.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, marker, skoch, qog‘oz.
O‘qitish shakli	Ommaviy, guruhiy.
O‘qitish shart-sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan o‘quv xonasi

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Tinglovchi
1-bosqich mashg'ulotga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Mavzu maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>1.2. Tinglovchilarni faollashtirish maqsadida mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosida blits – so'rov o'tkazadi</p>	<p>1.1. Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (60 dakika.)	<p>2.1. Tinglovchilarni guruhga ajratadi. O'quv topshiriqlarini tarqatadi. Har bir tinglovchi guruh baxosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. Guruhlarda ishlash natijasi A4 bichimidagi qog'ozlarda ko'rsatilish kerakligini ma'lum qiladi. Mavzu muhokamasi guruhlarda ishlar taqdimotidan so'ng davom etishini e'lon qiladi.</p> <p>2.2. Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e'lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma'ruza matnlari, konspekt daftarlari va boshqa qo'llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi.</p> <p>2.3. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o'zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarishi jarayonidagi asosiy xulosalarga e'tiborni qaratadi.</p>	<p>2.1. O'quv topshiriqlarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi, vazifalarni bajaradilar.</p> <p>2.2. Taqdimot qiladi, to'ldiradi, boshqa guruhlarga savollar beradi va o'zaro baholashni amalga oshiradi. Yozib oladilar.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa.)	3.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi, xulosalarni umumlashtiradi, guruhlarda faol ishtirok etgan tinglovchilarni baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.

## Bozor iqtisodiyoti tushunchasi va uning asosiy belgilari

1-slayd





2-slayd



3-slayd

*Vatanimiz mustaqilikni qo'lga kiritgach, taraqqiyotning qaysi yo'lidan borish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday tamoyillarga tayanish kabi bir qarashda jo'n ko'rinadigan, lekin xiyla murakkab va ziddiyatli, mamlakatning taqdiri bilan bog'liq o'ta muhim muammolarga duch keldi.*







Илова-2




Bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi

Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni "shok terapiyasi" yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

*Islom Karimov*

O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, "o'zbek modeli" deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.





**Ikkinchi bosqich  
vazifalarini hal qilish  
uchun isloh qilishning  
quyidagi muhim  
yo'nalishlari belgilab  
olindi**

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish

Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish


